

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

“SOLIQLAR VA SOLIQQA TORTISH” KAFEDRASI

SAKSANOV MUXIDDIN NARBABAEVICH

**“KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA YAGONA SOLIQ
TO‘LOVNING AHAMIYATI”**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

“HIMOYAGA RUXSAT ETILDI”

“Soliqlar va soliqqa tortish”
kafedrasi mudiri
i.f.d., professor Jo‘raev A.C. _____

“ _____ ” _____ 2013 y.

Bitiruvchi: 5340800 – “Soliqlar va soliqqa tortish”
ta‘lim yo‘nalishi 4-kurs talabasi Saksanov
Muxiddin Narbabaevich _____

Ilmiy rahbar: dots. Safarov G‘. _____

TOSHKENT - 2013

MUNDARIJA

KIRISH.....	4
I. BOB. KICHIK BIZNES SUB'EKTLARINI SOLIQLAR VOSITASIDA RAG'BATLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	8
1.1. Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda kichik biznes sub'ektlarining o'rni va ahamiyati	8
1.2. Kichik biznes sub'ektlarini soliqlar vositasida rag'batlantirishning mohiyati va ahamiyati.....	15
II. BOB. KICHIK BIZNES SUB'EKTLARINI SOLIQLAR VOSITASIDA RAG'BATLANTIRISH MEXANIZMINING TAHLILI (Qo'shrabot tumani misolida).....	20
2.1. Kichik biznes sub'ektlarining byudjet oldidagi majburiyatlari va soliqlar vositasida rag'batlantirish mexanizmi.....	20
2.2. Kichik biznes sub'ektlarini soliqlar vositasida rag'batlantirishda yagona soliq to'lovining ahamiyati.....	28
III. BOB. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA KICHIK BIZNES SUB'EKTLARINI SOLIQLAR VOSITASIDA RAG'BATLANTIRISH MASALALARI.....	41
3.1. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida kichik biznes sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash va soliqlarning rag'batlantiruvchi ahamiyatini oshirish masalalari.....	41
3.2. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida kichik biznes sub'ektlarini soliqlar vositasida rag'batlantirishning ustuvor yo'nalishlari	47
XULOSA	53
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	56

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Iqtisodiy rivojlanishning hozirgi davrida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotning tez o'zgarib turadigan bozor talablariga javob berishini ta'minlaydigan zamonaviy tuzilmalarini shakllantirishda, yangi ish o'rinlarini tashkil qilishda va aholi daromadlarini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashda kichik biznes sub'ektlari faoliyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Kichik biznes sub'ektlarining rivojlanishiga keng yo'l ochish iste'mol bozorida tovar va xizmatlar taqchilligi hamda mablag' etishmovchiligi sharoitida ko'p sarmoya sarf qilmasdan, qisqa muddat ichida raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatini yaratadi. Bu esa, yirik ixtisoslashtirilgan korxonalar etkazib bera olmaydigan maxsulotlar bilan aholini ta'minlashga imkon beradi. Shuning uchun respublikamiz hukumati tomonidan kichik biznes sub'ektlarini soliqlar orqali rag'batlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimiz Prezidenti I.Karimov 2012 yil yakunlariga baho berib, mamlakatimiz iqtisodiyotining yuqori barqaror o'sish sur'atlari va makroiqtisodiy mutanosibligi saqlanib qolayotganini qayd etdi. "2012-yilda mamlakatimizda kompleks chora-tadbirlar dasturini amalga oshirish hisobidan qariyb 1 millionta yangi ish o'рни tashkil etildi. Bu ish o'rinlarining 62 foizga yaqini qishloq joylarda yaratildi. Bu borada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish evaziga 485 ming kishi, kasanachilikning barcha shakllarini kengaytirish hisobidan esa 218 ming kishi ish bilan ta'minlandi"¹.

Yalpi ichki mahsulot tarkibida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi ko'paygani hamda mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishda uning roli sezilarli darajada oshganida namoyon bo'lmoqda.

¹ Karimov I.A. "Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish". – Xalq so'zi. - 2013. – 19 yanvar.

2000 yilda yalpi ichki mahsulotning qariyb 31 foizi iqtisodiyotning faol rivojlanib borayotgan ushbu sektori ulushiga to'g'ri kelgan bo'lsa, 2010 yilda bu ko'rsatkich 52,5 foizni tashkil etdi². Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasining mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashning ishonchli tayanchi bo'lgan mulkdorlar sinfini, ya'ni o'rta sinfni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Eng asosiysi kichik bines sub'ektlari uchun qulay soliq muhitini yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda. "Soliq yukini, birinchi navbatda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlaridan olinadigan soliq yukini sezilarli darajada kamaytirish belgilanmoqda. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari uchun yagona soliq to'lovi stavkasi 6 foizdan 5 foizga tushirilishi rejalashtirilmoqda"³.

Hozirgi iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida kichik biznes sub'ektlarining yanada jadal rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarning yaratilishi mehnatga layoqatli aholini bandligini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, kichik biznes sub'ektlari uchun soliq majburiyatlarining minimallashtirilishi ular ixtiyorida moliyaviy resurslarning barqarorlashishiga va o'z faoliyatini kengaytirishga xizmat qilmoqda. Shunga qaramasdan, mamlakatimizning barcha joylarida kichik biznes sub'ektlari jadal rivojlanib borayapti deb bo'lmaydi. Bu holat kichik biznes sub'ektlarini soliqqa tortish mexanizmini yanada takomillashtirishni taqozo etadi.

Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti va predmeti. Qo'shrabot tumanida faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes sub'ektlarini soliqqa tortish tartibi va yagona soliq to'lovining amaldagi mexanizmi mazkur ishning ob'ekti hisoblanadi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida kichik biznes sub'ektlarini soliqqa tortish (yagona soliq to'lovi) jarayonida vujudga keladigan moliyaviy munosabatlar ishning predmeti hisoblanadi.

² Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiqyadi. //Xalq so'zi. 2011 yil 22 yanvar.

³ Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiqyadi. //Xalq so'zi. 2011 yil 22 yanvar.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida kichik biznes sub'ektlarini soliqlar vositasida rag'batlantirish va bunda yagona soliq to'lovining ahamiyatini tanqidiy jihatdan o'rganish, uni takomillashtirish yuzasidan taklif-tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda kichik biznes sub'ektlarining o'rni va ahamiyatiga baho berish;
- kichik biznes sub'ektlarini soliqlar vositasida rag'batlantirishning mohiyati va ahamiyatini yoritish;
- kichik biznes sub'ektlarining byudjet oldidagi majburiyatlari va soliqlar vositasida rag'batlantirish mexanizmini tahlil qilish;
- kichik biznes sub'ektlarini soliqlar vositasida rag'batlantirishda yagona soliq to'lovining ahamiyatini tahlil qilish;
- iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida kichik biznes sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash va soliqlarning rag'batlantiruvchi ahamiyatini oshirish masalalarini bayon etish;
- kichik biznes sub'ektlarini soliqlar vositasida rag'batlantirishning ustuvor yo'nalishlarini bayon etish.

Mavzuning nazariy va amaliy ahamiyati. Malakaviy ishdan olingan ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalardan iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida kichik biznes sub'ektlarini soliqlar vositasida rag'batlantirishga doir ilmiy ishlarni olib borishda, mamlakatimiz soliq tizimini yanada takomillashtirishda foydalanish mumkin. Shuningdek, malakaviy ish materiallaridan o'rta maxsus kasb-hunar kollejlari soliq tizimiga doir fanlarni o'qitishda foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining birinchi bobi kichik biznes sub'ektlarini soliqlar vositasida rag'batlantirishning ilmiy-nazariy asoslariga qaratilib, unda iqtisodiy

barqarorlikni ta'minlashda kichik biznes sub'ektlarining o'rni va ahamiyati, kichik biznes sub'ektlarini soliqlar vositasida rag'batlantirishning mohiyati va ahamiyati yoritilgan.

Bitiruv malakaviy ishining ikkinchi bobida kichik biznes sub'ektlarini soliqlar vositasida rag'batlantirish mexanizmi tahlil qilingan. Unda kichik biznes sub'ektlarining byudjet oldidagi majburiyatlari va soliqlar vositasida rag'batlantirish mexanizmi, kichik biznes sub'ektlarini soliqlar vositasida rag'batlantirishda yagona soliq to'lovining ahamiyati Soliq kodeksi va Qo'shrabot tumani DSI, tumandagi korxonalar ma'lumotlari asosida tahlil qilingan.

Bitiruv malakaviy ishining uchinchi bobi iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida kichik biznes sub'ektlarini soliqlar vositasida rag'batlantirish masalalarini yoritishga qaratilgan va unda kichik biznes sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash va soliqlarning rag'batlantiruvchi ahamiyatini oshirish hamda kichik biznes sub'ektlarini soliqlar vositasida rag'batlantirishning ustuvor yo'nalishlari yoritib berilgan. Ish xulosa bilan yakunlanib, unda mavzuni o'rganish natijasida chiqarilgan nazariy va amaliy xulosalar umumlashtirilgan.

I. BOB. KICHIK BIZNES SUB'EKTLARINI SOLIQLAR VOSITASIDA RAG'BATLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

1.1. Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda kichik biznes sub'ektlarining o'rni va ahamiyati

Mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar hajmining kengayishi, qo'shimcha ish joylarini yaratilishi va aholini real daromadalarini o'sishi, avvalom bor makroiqtisodiy barqarorlikni talab etadi. Shu bois, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda mamlakatda faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan yaratilayotgan mahsulotlarni yalpi ichki mahsulotdagi hissasini, aholi bandligini ta'minlashdagi samarasini oshirish hozirgi kunning eng dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Iqtisodiy islohotlarni yanada erkinlashtirish va chuqurlashtirish jarayonida kichik biznesni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida xususiy tadbirkorlik, kichik biznesni rivojlantirish, mulkdorlar sinfini shakllantirish, bozorlarni tovarlar bilan to'ldirish, raqobat muhitini yaratish, ishsizlikka barham berish mamlakat oldida turgan asosiy vazifalardan hisoblanadi. O'tish davri iqtisodiyotiga ega bo'lgan mamlakatlar, shu jumladan O'zbekiston uchun ham kichik tadbirkorlikni iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o'rni muhim hisoblanadi. Respublikamiz makroiqtisodiy barqarorligini ta'minlash amalga oshirayotgan keng ko'lamli iqtisodiy islohotlarning samarasiga bog'liq.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sonini ko'paytirish orqali iqtisodiyotdagi yirik ishlab chiqarish yakka hukmronligini bartaraf etish, xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish jarayonining amalga oshirilishi, samarali raqobat muhitining shakllanishi eng oqilona usullardan biri hisoblanadi. Kichik korxonalarining aholini ish bilan bandligi va qo'shimcha ish haqi olish imkoniyatini yaratish orqali jamiyatdagi muvozanatni ta'minlashdagi ahamiyati beqiyosdir.

Kichik tadbirkorlikni iqtisodiyotning rivojlanishidagi muhim o'rnini shu bilan ham belgilanadiki, u aholining ishbilarmonlik faolligini oshirishda ham alohida ahamiyatga ega.

Kichik tadbirkorlikning mohiyati va iqtisodiyotdagi o'rnini juda keng qamrovlidir. Mamlakatimizda kichik tadbirkorlikni rivojlantirish uchun hukumat tomonidan yaratilgan shart-sharoitlar barqaror bozor iqtisodiyotini shakllantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tishning o'ziga xos xususiyatlariga ega bo'lgan yo'limiz boshqa rivojlangan mamlakatlarning qonuniy hujjatlaridan to'g'ridan-to'g'ri nusxa ko'chirish bilan emas, balki ularning tajribasi atroflicha o'rganilib, eng hayotiy va amaliy jihatlaridan foydalanildi. O'tish davrida amalga oshirilgan chora-tadbirlar va jamlangan tajriba asosida qonuniy hujjatlarni ishlab chiqish va qabul qilishning samarali mexanizmi tashkil etildi. Buning natijasida iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish borasida to'la qonli tizim vujudga keltirildi.

Mamlakat iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan ustuvor vazifalardan biri – “bu kichik va xususiy tadbirkorlikning jadal rivojlanishini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, shu asosda aholining bandligi va farovonligini oshirish mauammolarini hal etishdan iborat”⁴. Bu boradagi eng katta yutug'imiz yalpi ichki mahsulot tarkibida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi ko'paygani hamda mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishda uning roli sezilarli darajada oshganida namoyon bo'lmoqda.

2000 yilda yalpi ichki mahsulotning qariyb 31 foizi iqtisodiyotning faol rivojlanib borayotgan ushbu sektori ulushiga to'g'ri kelgan bo'lsa, 2010 yilda bu ko'rsatkich 52,5 foizni tashkil etdi⁵.

⁴ Karimov I.A. Yangilanish va barqaror traqqiyot yo'lidan yanada izchil harakat qilish, xalqimiz uchun farovon turmush sharoiti yaratish – asosiy vazifamizdir. // Xalq so'zi 2007 yil 13 fevral.

⁵ Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. – T.: O'zbekiston, 2011. – 48 b.

Aytish kerakki, bunday iqtisodiy o'sish ko'p jihatdan iqtisodiyotda soliq yukini pasaytirishga qaratilgan va izchil amalga oshirilayotgan siyosat bilan bog'liq.

1-jadval

**Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning
YaIM dagi ulushi dinamikasi⁶**

foizda

Ko'rsatkichlar	YILLAR					
	2007	2008	2009	2010	2011	2012
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YaIMdagi ulushi	45,5	48,2	50,1	52,5	54,0	55,0
Kichik korxonalarining YaIMdagi ulushi	27,4	29,5	31,2	32,5	36,7	38,4

Tahlillar ko'rsatmoqdaki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning respublikamizda yaratilgan YaIM dagi ulushi 2007 yilda 45,5 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2012 yilda 55,0 foizni tashkil etib, so'nggi besh yilda qariyb 10 foizga o'sgan.

Respublikamizda kichik tadbirkorlikning kelgusida yanada jadal sur'atlar bilan rivojlantirish amalga oshirilayotgan ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Kichik tadbirkorlikni rivojlantirishning tez sur'atlar bilan rivojlanishini ta'minlamasdan barqaror iqtisodiy o'sish va ijtimoiy soha muammolarini hal etish mumkin emas. Bunga erishish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim: ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash, kredit resurslarini erkin olish imkoniyatini yaratish maqsadida bank sohasidagi islohotlar bilan hamohang ravishda samarali soliqqa tortish tizimi zahirida kichik tadbirkorlikni rag'batlantirish, shuningdek xususiy mulkni samarali sud huquq himoyalash tizimini shakllantirish zarur.

Mamlakatimizda 2011 yilning Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili, deb e'lon qilinishi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotning tez o'zgarib turadigan bozor talablariga javob berishini ta'minlaydigan zamonaviy

⁶ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

tuzilmalarini shakllantirishda, yangi ish o'rinlarini tashkil qilishda va aholi daromadlarini oshirishda katta rol o'ynadi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasining mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashning ishonchli tayanchi bo'lgan mulkdorlar sinfini, ya'ni o'rta sinfni shakllantirishdagi ulkan ahamiyatini hech narsa bilan qiyoslab bo'lmaydi.

Iqtisodiyotning ushbu sohasi yurtimizda qanday katta sur'atlar bilan rivojlanib borayotganini yuqorida qayd etib o'tdik.

Hozirgi kunda kichik biznes sub'ektlari yalpi ichki mahsulotning qariyb 50 foizini ishlab chiqarmoqda, holbuki, 2000 yilda bu ko'rsatkich 30 foizni tashkil etgan edi. Bunday natija birinchi navbatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning davlat tomonidan doimiy qo'llab-quvvatlanayotgani samarasidir.

“Mamlakatimizda yangi ish o'rinlarini yaratish, aholini, birinchi navbatda, yoshlarni ishga joylashtirish muammosiga g'oyat katta e'tibor berilayotgani haqida bugun ortiqcha gapirishga zarurat yo'q, deb o'ylayman.

2012-yilda mamlakatimizda kompleks chora-tadbirlar dasturini amalga oshirish hisobidan qariyb 1 millionta yangi ish o'rni tashkil etildi. Bu ish o'rinlarining 62 foizga yaqini qishloq joylarda yaratildi. Bu borada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish evaziga 485 ming kishi, kasanachilikning barcha shakllarini kengaytirish hisobidan esa 218 ming kishi ish bilan ta'minlandi.

Ushbu ko'rsatkichlarni mamnuniyat bilan qayd etar ekanmiz, bu vazifa joriy va kelgusi yillarda ham ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarimizning markazida bo'lishi lozimligini barchamiz yaxshi anglaymiz, albatta”⁷.

Mamlakatimizda yaratilgan ishbilarmonlik muhiti qulay investitsiyaviy jozibadorlikning muhim tarkibiy qismi va omilidir.

⁷ Karimov I.A. “Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish”. – Xalq so'zi. - 2013. – 19 yanvar.

O'zbekistonda Jahon banki tomonidan ishlab chiqilgan metodologiyaga mos va mamlakatimizda biznesni yuritish bilan bog'liq barcha jarayonlarni yanada liberallashtirish, soddalashtirish va ularning ochiqligini ta'minlashga yo'naltirilgan kompleks dastur qabul qilindi.

2012-yil davomida mazkur dastur doirasida oltita muhim qonun, jumladan, "Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi, yangi tahrirdagi "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi qonunlar, shuningdek, ruxsat berish tartib-taomillarini soddalashtirish, soliq va statistik hisobotlarni qisqartirishga qaratilgan qonun hujjatlari va normativ aktlar majmuasi qabul qilindi.

Ruxsat berishga oid 80 ta tartib-taomil, litsenziyalanishi talab etiladigan 15 ta faoliyat turi bekor qilindi, statistik, soliq va moliyaviy hisobotlarning shakllari va davriyligi bir yarim-ikki barobar qisqartirildi. Davlat va nazorat qiluvchi idoralarning tadbirkorlik sub'ektlari bilan elektron shakldagi bilvosita aloqasi bosqichma-bosqich joriy etilmoqda.

Bugungi kunda O'zbekistonda biznesni ro'yxatga olish jarayoni "bir darcha" tamoyili asosida atigi ikki kun ichida amalga oshiriladi va bu eng yaxshi xalqaro amaliyot talablariga to'la mosdir.

Mamlakatimizda tadbirkorlik sub'ektlari huquqlarining ustuvorligi tamoyili joriy etilgan bo'lib, bunda tadbirkorlik faoliyatini yuritish bilan bog'liq qonunchilikdagi bartaraf etib bo'lmaydigan qarama-qarshilik va noaniqliklar tadbirkorlik sub'ekti foydasiga talqin qilinishi belgilab qo'yilgan.

Mamlakatimizda ishbilarmonlik muhitini takomillashtirish borasidagi chora-tadbirlar o'zining ilk natijalarini ko'rsatayotganini ta'kidlash joiz. Jahon banki hisob-kitoblariga ko'ra, 2012-yilda O'zbekiston biznesni yuritish bo'yicha reytingda 14 o'rin yuqoriga ko'tarildi.

Ayni paytda mazkur yo'nalishda yana ko'p ishlarni amalga oshirish lozimligini ta'kidlash kerak. Mamlakatimizdagi ishbilarmonlik muhiti jahon tajribasida qabul qilingan biznesni yuritish mezonlariga qay darajada mos kelishini doimo kuzatib borishimiz va tegishli qarorlar qabul qilishimiz zarur.

Yangi ish o'rinlari tashkil etish va mamlakatimiz aholisi bandligini ta'minlash 2013-yil va undan keyingi yillarga mo'ljallangan maqsadli vazifalarni hal qilishning eng muhim ustuvor yo'nalishi bo'lib qoladi.

Oliy Majlis tomonidan ma'qullangan dasturda 2013-yilda 970 mingdan ortiq yangi ish o'ri tashkil etish ko'zda tutilgan. Muhim ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan mazkur masalani hal etishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni, xizmat ko'rsatish va servis sohasini jadal rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Ushbu sohalarda qariyb 500 ming ish o'ri yaratish rejalashtirilmoqda.

Band bo'lmagan aholini ish bilan ta'minlashda kasanachilikning turli shakllarini, birinchi navbatda, kasanachilar va korxonalar o'rtasidagi kooperatsiyani mehnat shartnomalari asosida kengaytirish, oilaviy biznesni rivojlantirish katta rezerv hisoblanadi. Mazkur sohalar hisobidan 280 mingdan ortiq kishini ishga jalb qilish ko'zda tutilgan.

Ish o'rinlarini tashkil qilishda, birinchi navbatda, tarmoq dasturlarini amalga oshirish, korxonalarni modernizatsiya qilish va texnologik yangilash, ishlab chiqarishni mahalliyashtirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlashni chuqurlashtirish, transport va kommunikatsiya qurilishini, ijtimoiy va bozor infratuzilmasini jadal rivojlantirish, aholi punktlarini obodonlashtirish ishlarini kengaytirish masalalari muhim o'rin tutadi va bu sohalarda 250 ming kishini ish bilan ta'minlash belgilangan⁸.

Mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar hajmining kengayishi, qo'shimcha ish joylarini yaratilishi va aholini real daromadlarini o'sishi, avvalom bor makroiqtisodiy barqarorlikni talab etadi. Shu bois, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda mamlakatda faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan yaratilayotgan mahsulotlarni yalpi ichki mahsulotdagi hissasini, aholi bandligini ta'minlashdagi samarasini oshirish hozirgi kunning eng dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

⁸ Karimov I.A. "Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish". – Xalq so'zi. - 2013. – 19 yanvar.

Respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining soni jihatidan tarmoq tarkibiy tuzilmasi bilan uning tarmoqda ishlab chiqarayotgan mahsulot hajmi bo'yicha keskin farqni kuzatish mumkin.

2-jadval

**O'zbekistonda ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarda
kichik korxonalar va mikrofirmalarning tarmoqlar
buyicha ulushi⁹**

Tarmoqlar	YILLAR					
	2007	2008	2009	2010	2011	2012
Sanoat	4,0	4,2	4,2	4,5	4,5	4,6
Qishloq xo'jaligi	1,6	2,0	1,3	1,4	1,5	1,6
Qishloq xo'jaligi (dehqon va fermer xo'jaliklari bilan)	65,8	66,6	72,1	73,2	73,6	73,0
Qurilish	10,6	11,3	9,6	10,1	9,2	9,4
Savdo va umumiy ovqatlanish	8,2	8,6	10,3	10,8	11,2	11,4

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonning jahon iqtisodiy hamjamiyatiga munosib tarzda kirib borishida xususiy tadbirkorlik muhim rol o'ynaydi. Chunki ko'plab biznes tahlilchilari va tadqiqotchilar XXI asrda xususiy tadbirkorlik ko'plab mamlakatlarda iqtisodiyotning dinamik qismiga aylanib, milliy iqtisodiyotning poydevori va har qanday davlatning muvaffaqiyatli rivojlanishi va gullab yashnashining asosiy negizi bo'lib hisoblanadi degan fikrdalar. Shu bois, mamlakat yalpi ichki mahsulotining o'sish sur'atlari hamda aholi farovonligining oshishi hal qiluvchi darajada aynan xususiy tadbirkorlikning rivojlanishiga bog'liq.

⁹ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

1.2. Kichik biznes sub'ektlarini soliqlar vositasida rag'batlantirishning mohiyati va ahamiyati

Milliy iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizatsiyalash sharoitida, soliq siyosati kontseptsiyasiga asosan turli mulkchilik shaklidagi korxonalarda soliq yukini kamaytirish maqsadida bir xil soliqqa tortiladigan bazaga ega bo'lgan soliqlarni unifikatsiya qilish yo'li bilan soliq tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari amalga oshirilmoqda.

Soliqqa tortish tizimida olib borilayotgan islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, kichik biznes subektlarini soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 15 apreldagi 159-son "Kichik korxonalar uchun ixchamlashgan soliqqa tortish tizimiga o'tishni qo'llash to'g'risida" gi qaroriga asosan mikrofirma va kichik korxonalar soliqqa tortishning umumbelgilangan tartibidan soddalashtirilgan, ya'ni ixchamlashtirilgan soliq rejimiga o'tkazildi. Bunda kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lash yoki umumbelgilangan tartibda soliq majburiyatlarini bajarish ixtiyoriy ekanligi qat'iy belgilandi. Kichik korxonalar uchun yagona soliqning o'rnatilishi soliq hisob-kitobini tuzishni osonlashtiradi hamda ular bir nechta soliq turi o'rniga faqatgina bitta yagona soliq bo'yicha soliq idoralariga soliq hisob-kitobini topshirish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Natijada korxonalar hisobchilarining ishi birmuncha osonlashdi.

Ta'kidlash joizki, alohida turdagi soliq to'lovchilarga nisbatan soddalashtirilgan soliqqa tortish tartibini qo'llash amaliyoti dunyoning ko'pgina mamlakatlarida keng tarqalgan bo'lib, bizning respublikamizda ham o'zining ijobiy natijalarini bermoqda. Masalan, kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun soddalashtirilgan yagona soliqni joriy etilishi kichik biznesni rivojlantirishni rag'batlantirishga, YaIMda xususiy sektor ulushini ko'paytirishni hamda aholi o'rtasida tadbirkorlikni rag'batlantirishga qaratilgandir.

Jahon biznesi tarixining guvohlik berishicha ko'plab yirik kompaniya va korporatsiyalar o'z faoliyatlarini kichik korxonalar darajasidan boshlagan.

Rivojlangan mamlakatlarda kichik korxonalar iqtisodiyotning asosiy tarkibiy qismi hisoblanib, bir qator ijtimoiy-iqtisodiy vazifalar, jumaladan, arzon ish o'rinlarini yaratish hisobiga aholi bandligini ta'minlash, bozor kon'yukturasiga moslashuvchanlikni ta'minlash, innovatsion faollikni rag'batlantirish kabi bir qator vazifalarni bajaradi. Shu bilan birga turli davlatlarda kichik korxonalarni aniqlash mezonlari va ularni davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlashning turli xil mexanizmlari amal qiladi.

Shundan kelib chiqqan holda respublikamiz iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda kichik korxonalar faoliyatini rivojlanishni rag'batlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar mexanizmi ishlab chiqilgan.

Kichik biznesning o'ziga xos bir qator xususiyatlari mavjud. Ular bozor konyunkturasiga oson moslashuvchanligi, yangi ish o'rinlarini yaratish orqali ishsizlikning oldini olishi, yirik biznes sub'ektlari uchun iqtisodiy samarasiz sohalarda faoliyat ko'rsatishda qulayligi, milliy an'analarni o'zida saqlab keyingi avlodlarga etkazishi kabilardan iboratdir. Shu bilan birga ularga investitsiya kiritishning moddiy asosi yo'qligi, faoliyatining beqarorligi, bankrot holatiga tez tushishligi kabi xususiyatlar ham xos bo'lib, bular kichik biznesning zaif tomonlarini tavsiflaydi.

Respublikamiz soliq amaliyotida kichik tadbirkorlik sub'ektlari uchun soliq solishning soddalashtirilgan tartibi 15 yildan ortiq vaqt davomida samarali qo'llanilib kelinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 31 dekabrda "1997 yilgi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning asosiy ko'rsatkichlari va O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining prognozi to'g'risida"gi 469-son qaroriga muvofiq kichik tadbirkorlik sub'ektlari o'z xohishiga qarab soliq, solishning amaldagi shartlarini saqlab qolishlari yoki yangi joriy etilganini - yagona soliqni qabul qilishlari mumkin. Ushbu tartibning joriy etilishini ilg'or qadam deb qarash mumkin, chunki bu bilan kichik biznes sub'ektlarini soliqqa tortishda oddiylik va qulaylik bo'lishiga erishildi. 1998 yil 1 yanvardan boshlab soliq solishning soddalashtirilgan tizimi Soliq kodeksida qonun jihatidan mustahkamlab qo'yildi.

O'zbekistonda kichik korxonalarni soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimining joriy etilishini shartli ravishda 4 bosqichga ajratish mumkin:

- 1) 1997 yildan 1998 yilning 15 apreliga qadar;
- 2) 1998 yilning 15 apreldan 2002 yilning 15 iyuniga qadar;
- 3) 2002 yilning 15 iyunidan 2005 yil 1 iyuliga qadar;
- 4) 2005 yil 1 iyulidan hozirgi kunga qadar.

Mikrofirmalar va kichik korxonalarni jadal rivojlantirishni yanada rag'batlantirish hamda uning mamlakat iqtisodiyotida ahamiyati va ulushini tubdan oshirish maqsadida 2005 yil 1 iyuldan boshlab kichik kichik biznes sub'ektlarining ba'zi toifalari uchun yagona soliq to'lovi joriy qilindi.

U birxillashtirilgan bo'lib, quyidagi majburiy to'lovlarni to'lash o'rniga joriy qilinadi:

- yagona soliq;

- byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi, Respublika yo'l jamg'armasi va Maktab ta'limi jamg'armasiga majburiy ajratmalar.

Mikrofirma va kichik korxonalar o'z xohishlariga ko'ra yagona soliq to'lovini yoki qonunda nazarda tutilgan barcha soliqlar, yig'implar va majburiy to'lovlar majmuini to'lashlari mumkin.

Yagona soliq to'lovi majburiy to'lovning unifikatsiyalashtirilgan turi, u mazkur to'lovni yagona soliq, byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi, Respublika yo'l jamg'armasi va Maktab ta'limi jamg'armasiga majburiy ajratmalar o'rniga to'lashni nazarda tutadi. Soliq yukining kamaytirilganligi va davlat maqsadli jamg'armalariga ajratmalarni hisoblab chiqish va to'lash bilan bog'liq majburiyatlarning bekor qilinganligi ushbu soha sub'ektlari uchun soliq ma'murchiligini ancha engillashtirdi.

Yagona soliq to'lovi to'lovchilari uchun davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy ajratmalarning bekor qilinishi mikrofirma va kichik korxonalarni ko'rsatilgan to'lovlarning to'lovchilari sirasidan chiqarishga olib keldi, bu esa ularni qonunda ushbu ajratmalarga nisbatan nazarda tutilgan hisob-kitoblarni

topshirish, hisoblab chiqish, to'lash va boshqa operatsiyalarni amalga oshirishdan ozod etdi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qiladigan bo'lsak, mazkur soliqqa tortish tizimining soliq tizimiga joriy etishdan quyidagi maqsad ko'zda tutilgan.

Birinchidan, kichik biznes sub'ektlarining soliq turlarini birxillashtirish, buxgalteriya va soliq hisobotlarini soddalashtirish negizida soliqqa oid qonun buzilishlarini oldini olish.

Ikkinchidan, kichik biznes sub'ektlarini soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'lash bilan bog'liq xarajatlarini qisqartirish.

Umuman, ushbu soliq moliyaviy nuqtai nazardan olganda, rag'batlantirish va nazorat qilish, byudjetlar daromadlarini shakllantirish nuqtai nazaridan fiskal vazifalarni bajaradi.

2007 yilda yagona soliq to'lovining amal qilish qamrovi yanada kengaytirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 18 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2007 yilni asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-532-sonli qaroriga muvofiq, 2007 yilning 1 yanvaridan boshlab ilgari to'lanadigan soliqlar va davlat maqsadli jamg'armalariga hamda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Maktab ta'limi jamg'armasi majburiy to'lovlar o'rniga:

- savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini;
- lotereyalar va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarni tashkil etish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar;
- tayyorlov, ta'minot-sotish, brokerlik faoliyati, shuningdek komission shartnomalar (topshiriqlar) bo'yicha vositachilik xizmatlari ko'rsatuvchi mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi joriy etilishi belgilangan.

Respublikamizda yagona soliq to'lovini takomillashtirish tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga, ishlab chiqarishni rag'batlantirishga, xizmatlar ko'rsatish va ishlarni bajarish segmentlarini kengaytirishga, aholi bandligini

o'shish yo'li bilan real daromadlarni o'shishga yo'naltirilgan. Shuning uchun soliqqa tortish mexanizmini soddalashtirish, korxonalar soliq to'lovlarini soddalashtirish va soliq majburiyatlarini bajarilishini samarali nazorat qilish hamda soliq va to'lovlarni unifikatsiyalash (birxillashtirish)ga katta e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamiz soliq tizimida ko'p yillardan e'tiboran kichik tadbirkorlik sub'ektlari uchun soliqqa tortishning soddalashtirilgan tartibining joriy etilganligi, ularni jadal rivojlanishiga xizmat qildi. Mamlakatimizda kichik tadbirkorlik sub'ektlarini rivojlantirishga qaratilgan moliya-kredit tizimining boshqa mexanizmlari bilan bir vaqtda qo'llanilgan, soddalashtirilgan soliqqa tortish tizimi kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soliq majburiyatlari bo'yicha hisob-kitoblarni kamaytirishga xizmat qilishi bilan birga, soliq idoralarida soliq ishini yuritishni ham engillashtirdi.

Soliq yukini, birinchi navbatda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari zimmasidagi soliq yuki sezilarli darajada kamaytirildi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari uchun yagona soliq to'lovi stavkasi 6 foizdan 5 foizga tushirilishi ularning soliq yukini yanada kamayishiga xizmat qilmoqda.

Dunyo mamlakatlari soliq amaliyotida kichik biznesni iqtisodiy qo'llab-quvvatlashda soliq mexanizmidan foydalanishning turli usul va shakllari qo'llaniladi. Shulardan eng keng tarqalgani iqtisodiy jadal rivojlangan mamlakatlarda qo'llaniladigani – bu asosiy soliqlar bo'yicha pasaytirilgan stavkalarni qo'llash usulidir.

O'zbekistonda soliq solishning soddalashtirilgan rejimi nafaqat o'zining kam sonli to'lovlari bilan, balki soliq stavkalarining muntazam pasaytirib borilishi bilan ajralib turadi. Bu esa, kichik biznes sub'ektlari soliq yukining sezilarli darajada kamayishiga sabab bo'ldi. Kichik biznes sub'ektlari uchun soliq stavkalarini pasaytirib borish tendentsiyasi sekinlashmasdan, balki so'nggi yillarda kuchayib bormoqda.

II. BOB. KICHIK BIZNES SUB'EKTLARINI SOLIQLAR VOSITASIDA RAG'BATLANTIRISH MEXANIZMINING TAHLILI

(Qo'shrabot tumani misolida)

2.1. Kichik biznes sub'ektlarining byudjet oldidagi majburiyatlari va soliqlar vositasida rag'batlantirish mexanizmi

O'zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligiga muvofiq soliq solishning soddalashtirilgan rejimi belgilangan mezonlarga muvofiq mikrofirma va kichik korxonalar tarkibiga kiruvchi yuridik shaxslarga qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 30 avgustdagi "1998 yil 9 apreldagi "Xususiy tadbirkorlik, kichik va o'rta biznesni rivojlantirishni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi farmoniga o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida"gi PF-3305 sonli farmoniga ko'ra 2004 yilning 1 yanvaridan boshlab kichik biznes sub'ektlari tarkibiga quyidagilar kiritilgan:

- yakka tartibda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchilar;
- xodimlarining o'rtacha yillik soni:
 - ishlab chiqarish tarmoqlarida 20 kishidan;
 - xizmat ko'rsatish sohasi va boshqa ishlab chiqarishga bevosita aloqasi bo'lmagan tarmoqlarda 10 kishidan;
 - ulugurji, chakana savdo va umumiy ovqatlanish sohasida 5 kishidan oshmagan mikrofirmalar;
- quyidagi tarmoqlarning o'rtacha yillik xodimlari soni:
 - engil va oziq-ovqat sanoati, metallga ishlov berish va asbobsozlik, yog'ochni qayta ishlash, mebel sanoati va qurilish materiallari sanoati 100 kishidan;
 - mashinasozlik, metallurgiya, yoqilg'i-energetika va kimyo sanoati, qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtirish va qayta ishlash, qurilish hamda boshqa sanoat-ishlab chiqarish sohalari 50 kishidan;
 - fan, ilmiy xizmat ko'rsatish, transport, aloqa, xizmat ko'rsatish sohasi (sug'urta kompaniyalaridan tashqari), savdo va umumiy ovqatlanish hamda

boshqa ishlab chiqarishga aloqador bo'lmagan sohalar 25 kishidan oshmagan kichik korxonalar (3-jadvalga qarang).

3-jadval

**Mikrofirma va kichik korxonalar mezonini belgilovchi
ishlovchilar soni to'g'risidagi ma'lumot¹⁰**

Faoliyat tarmoqlari	Ishlovchilar soni	
	Mikrofirmada	Kichik korxonada
Yonilg'i, oziq-ovqat, metalni qayta ishlash va asbobsozlik, yog'ochni qayta ishlash, mebel va qurilish materiallari sanoatida	20 kishigacha	100 kishigacha
Mashinasozlik, metallurgiya, yoqilg'i-energetika, ximiya sanoati, o'g'or mahsulotlari ishlab chiqarish va qayta ishlash, qurilish va boshqa sanoat-ishlab chiqarish tarmog'ida	20 kishigacha	50 kishigacha
Qishloq xo'jaligi	10 kishigacha	50 kishigacha
Ishlab chiqarishni boshqa tarmoqlari	10 kishigacha	25 kishigacha
Fan va ilmiy xizmat	10 kishigacha	25 kishigacha
Noishlab chiqarish tarmoqlari	10 kishigacha	25 kishigacha
Xizmat ko'rsatish tarmog'i	10 kishigacha	25 kishigacha
Transport	10 kishigacha	25 kishigacha

Kichik korxonalarda ishlovchilar sonini aniqlashda pudrat shartnomalari va fuqarolik-huquqiy tuzdagi boshqa shartnomalar bo'yicha ishlayotganlar ham hisobga olinadi.

Bir qarashda, kichik korxonalarni yagona soliqqa tortish mexanizmida hech qanday kamchilik va muammolar yo'qdek tuyuladi. Bu borada hal etilishi zarur bo'lgan ayrim muammolar ham borki, ularni respublikamiz iqtisodiyotidan kelib chiqqan holda hal qilinishi muhim ahamiyatga ega. Kichik korxonalarining soddalashtirilgan soliqqa tortish tizimiga o'tishlari uchun belgilangan mezonlarning tor doiradaliigi asosiy muammolardan biri.

Soddalashtirilgan soliq tizimiga o'tish mezoni tor doiradaliigi yirik, moliyaviy jihatdan barqaror faoliyat yuritayotgan subektlarga qo'l kelmoqda, yani amaliyotda shunday holatlar uchramoqdagi moliyaviy barqaror faoliyat ko'rsatib turgan yirik korxonalar soliq summasini kamaytirish maqsadida

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 30 avgustdagi "1998 yil 9 apreldagi "Xususiy tadbirkorlik, kichik va o'rta biznesni rivojlantirishni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi farmoniga o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida"gi PF-3305 sonli Farmoni asosida tayyorlandi.

soddalashtirilgan soliqqa tortish tizimiga o'tib faoliyat ko'rsatmoqda, natijada davlat byudjetiga muayyan miqdorda ziyon etkazilmoqda.

Respublikamiz soliq qonunchiligiga muvofiq mikrofirmalar va kichik korxonalar yagona soliq to'lovini to'lashni nazarda tutadigan soliq solishning soddalashtirilgan tartibini yoki umumbelgilangan soliqlar to'lashni tanlashga haqli¹¹.

Mikrofirmalar va kichik korxonalar umumbelgilangan tartibda soliqqa tortish tizimiga o'tsalar O'zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligida nazarda tutilgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'laydilar.

O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga muvofiq soliqlar deganda muayyan miqdorlarda undiriladigan, muntazam, qaytarib berilmaydigan va beg'araz xususiyatga ega bo'lgan, byudjetga yo'naltiriladigan majburiy pul to'lovlari tushuniladi.

Boshqa majburiy to'lovlar deganda esa belgilangan davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy pul to'lovlari, bojxona to'lovlari, shuningdek vakolatli organlar hamda mansabdor shaxslar tomonidan yuridik ahamiyatga molik harakatlarni to'lovchilarga nisbatan amalga oshirish uchun, shu jumladan muayyan huquqlarni yoki litsenziyalar va boshqa ruxsat beruvchi hujjatlarni berish uchun to'lanishi lozim bo'lgan yig'imlar, davlat boji tushuniladi¹².

Qayd etilganidek, respublikamiz soliq qonunchiligiga muvofiq kichik biznesni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish maqsadlarida kichik tadbirkorlik suyu'ektlari uchun soddalashtirilgan va umumbelgilangan soliqqa tortish tartiblari qo'llaniladi.

Respublikamizda kichik tadbirkorlik sub'ektlarini soliqqa tortishning ikkita tartibi mavjud:

1. Umumbelgilangan tartibda soliqqa tortish tartibi.
2. Soddalashtirilgan soliqqa tortish tartibi.

¹¹ O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. – T.: “Adolat”, 2010 y. – 353 b.

¹² O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. – T.: “Adolat”, 2010 y. – 8 b.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari uchun respublikamiz soliq qonunchiligida soliqqa tortish tartiblarini tanlash imkoniyati mavjud. Bu holat kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soliq majburiyatlarini soddalashtirishga va kamaytirishga xizmat qilmoqda.

Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi nazarda tutilgan soliq to'lovchilar uchun to'lov manbaida soliqlarni va boshqa majburiy to'lovlarni ushlab qolish majburiyatlari hamda byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga quyidagi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyatlari saqlanib qoladi:

- to'lov manbaida undiriladigan foyda solig'i;
- O'zbekiston Respublikasining norezidentlari tomonidan bajariladigan (ko'rsatiladigan) ishlar (xizmatlar) bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i;
- aktsiz to'lanadigan mahsulot ishlab chiqarishda solinadigan aktsiz solig'i;
- er qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar;
- bojxona to'lovlari;
- yagona ijtimoiy to'lov;
- davlat bojlari;
- tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlar ko'rsatish huquqi uchun yig'im;
- davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy ajratmalar (yagona soliq to'lovini to'lovchilar bundan mustasno);
- avtotransport vositalarini olganlik va (yoki) vaqtinchalik olib kirganlik uchun Respublika yo'l jamg'armasiga yig'im¹³.

Soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimi O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida nazarda tutilgan amaldagi soliqqa tortish tizimi bilan bir qatorda qo'llaniladi. Soliqqa tortish tizimini tanlash huquqi, tadbirkorlik faoliyatining maxsus soliq tartibi o'rnatilgan alohida turlarini amalga oshirayotgan mikrofirma va kichik korxonalarni istisno etganda, mikrofirma va kichik korxonalariga ixtiyoriy tarzda taqdim etiladi.

¹³ O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. – T.: “Adolat”, 2010 y. – 350-351 b.

Bir necha faoliyat turlarini amalga oshiruvchi yagona soliq to'lovini to'lovchilar har bir faoliyat turining soliq solinadigan ob'ekti uchun alohida hisob-kitob olib borishlari lozim va yagona soliq hamda yagona soliq to'lovining hisobini muayyan faoliyat turining soliq solinadigan ob'ektidan va unga mos keluvchi yagona soliq hamda yagona soliq to'lovi stavkalaridan kelib chiqqan holda amalga oshirishlari shart.

Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi soliq to'lovchilarning ayrim toifalari uchun qo'llaniladi va yagona soliq to'lovini, yagona er solig'ini hamda tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliqni hisoblab chiqarish hamda to'lashning maxsus qoidalari qo'llanilishini, shuningdek mazkur soliqlar bo'yicha soliq hisoboti taqdim etilishini nazarda tutadi.

Qat'iy belgilangan soliqni to'lash belgilangan faoliyat turlarini amalga oshiruvchi yagona soliq to'lovchilar ushbu faoliyat turlari bo'yicha alohida-alohida hisob yuritishlari hamda Soliq kodeksining 58-bobida nazarda tutilgan tartibda qat'iy belgilangan soliq to'lashlari shart.

Soliq davri mobaynida soliq solish tartibi o'zgargan taqdirda, soliq to'lovchi bu haqda soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organini O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan shaklda yozma ravishda xabardor etadi. Bunda o'tgan davr uchun soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni o'sha davrda amal qilgan soliq solish tartibidan kelib chiqqan holda to'lash bo'yicha majburiyatlar soliq to'lovchilarda saqlanib qoladi.

Yagona soliq to'lovi bo'yicha qayta hisob-kitob o'tkazish uchun yagona soliq to'lovini to'lovchilar yil yakunlari bo'yicha yagona soliq to'lovi hisob-kitobini taqdim etish muddatidan kechiktirmay soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga quyidagilarni taqdim etadilar:

- umumbelgilangan soliqlarning har bir turi bo'yicha hisob-kitoblarni;

- O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan shaklda hisoblab chiqarilgan umumbelgilangan soliqlar summasi to'g'risidagi ma'lumotnomani.

Umumbelgilangan soliqlar summasi hisoblangan yagona soliq to'lovi summasidan oshib ketgan taqdirda oshgan summa byudjetga to'lanishi lozim.

Hisoblangan yagona soliq to'lovi summasi umumbelgilangan soliqlar summasidan oshib ketgan taqdirda, byudjet bilan qayta hisob-kitoblar amalga oshirilmaydi¹⁴.

Yagona soliq to'lovining fiskal ahamiyati unchalik yuqori bo'lmasada, so'nggi yillarda uning ahamiyati ortib bormoqda.

4-jadval

Yagona soliq to'lovining O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti soliqli daromadlari tarkibidagi ahamiyati¹⁵

Ko'rsatkichlar	2011 yil		2012 yil		2013 yil (prognoz)	
	mlrd.so'm	foiz	mlrd.so'm	foiz	mlrd.so'm	foiz
JAMI SOLIQLI DAROMADLAR	16178,6	100,0	20614,1	100,0	25104,9	100,0
To'g'ri soliqlar	4238,7	26,2	5196,4	25,2	6583,1	26,2
1. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i	825,0	5,1	917,2	4,4	1239,0	4,9
2. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalaridan olinadigan yagona soliq to'lovidan davlat byudjetiga ajratma	527,5	3,3	703,5	3,4	817,3	3,3
3. Yagona soliq to'lovidan davlat byudjetiga ajratma	378,4	2,3	538,5	2,6	755,1	3,0
4. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	1789,7	11,1	2372,7	11,5	2769,7	11,0
5. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan qat'iy soliq	187,5	1,2	218,1	1,1	342,1	1,4
6. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i	530,6	3,3	446,4	2,2	659,9	2,6

¹⁴ O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. – T.: “Adolat”, 2010 y. – 353-354 b.

¹⁵ www.mf.uz ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

Keltirilgan jadval ma'lumotlarining tahlili ko'rsatmoqdaki, Davlat byudjeti daromadlarining umumiy summasi yildan-yilga o'sib bormoqda, ya'ni 2011 yilda 16178,6 mlrd. so'mni, 2012 yilda 20614,1 mlrd.so'mni tashkil etgani holda, 2013 yilda 25104,9 mlrd.so'mni tashkil etishi rejalashtirilgan.

Davlat byudjeti solikli daromadlari tarkibida to'g'ri soliqlarning ulushi nisbatan barqarorligicha qolmoqda. Jumladan, 2011 yilda 26,2 foizini, 2012 yilda 25,2 foizini tashkil etgani holda, 2013 yilda jami solikli daromadlarning 26,2 foizini tashkil etishi rejalashtirilgan.

Yagona soliq to'lovidan davlat byudjetiga ajratmaning davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda ulushi unchalik yuqori emas. So'nggi yillarda tushum summasi muntazam ravishda o'sib, uning davlat byudjeti daromadlari tarkibidagi ahamiyati sezilarli darajada o'zgarmagan. Jumladan, ushbu soliq 2011 yilda 378,4 mlrd.so'mni yoki 2,3 foizini, 2012 yilda 538,5 mlrd.so'mni yoki 2,6 foizini tashkil etgani holda, 2013 yilda 755,1 mlrd.so'mni yoki 3,0 foizini tashkil etishi rejalashtirilgan.

5-jadval

**Yagona soliq to'lovin to'g'ri soliqlar
tarkibidagi ahamiyati¹⁶**

Ko'rsatkichlar	2011 yil		2012 yil		2013 yil (prognoz)	
	mrd.so'm	foiz	mrd.so'm	foiz	mrd.so'm	foiz
To'g'ri soliqlar	4238,7	100,0	5196,4	100,0	6583,1	100,0
1. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i	825,0	19,5	917,2	17,7	1239,0	18,8
2. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalaridan olinadigan yagona soliq to'lovidan davlat byudjetiga ajratma	527,5	12,4	703,5	13,5	817,3	12,4
3. Yagona soliq to'lovidan davlat byudjetiga ajratma	378,4	8,9	538,5	10,4	755,1	11,5
4. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	1789,7	42,2	2372,7	45,7	2769,7	42,1
5. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan qat'iy soliq	187,5	4,4	218,1	4,2	342,1	5,2
6. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i	530,6	12,5	446,4	8,6	659,9	10,0

¹⁶ www.mf.uz ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

Respublikamiz davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda yagona soliq to'lovining ahamiyatini yillar bo'yicha keskin o'zgarishlar kuzatilmaganligi, bir tomondan soliq stavkalarining yillar bo'yicha kamaytirib borilishi bilan, ikkinchi tomondan kichik biznes sub'ektlari faoliyatining tobora kengayib borishi bilan belgilanadi. Natijada, so'nggi yillarda yagona soliq to'lovining davlat byudjeti solikli daromadlaridagi ahamiyati ortib borishi kuzatilgan. Demak, mamlakatimiz iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ortib borishiga mutanosib ravishda, ulardan undirilgan soliqlarning ulushi ham davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda ko'payib bormoqda.

5-jadval ma'lumotlarining tahlili ko'rsatmoqdaki, to'g'ri soliqlar tarkibida yagona soliq to'lovidan davlat byudjetiga ajratmaning ulushi boshqa to'g'ri soliqlarga solishtirganda ancha kamdir. Jumladan, uning to'g'ri soliqlar tarkibidagi ulushi 2011 yilda 8,9 foizni, 2012 yilda 10,4 foizni tashkil etgani holda, 2013 yilda 11,5 foizni tashkil etishi rejalashtirilgan. So'nggi uch yil mobaynida mazkur soliqni to'g'ri soliqlar tarkibidagi ulushining muntazam ortib borayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Jadval ma'lumotlarining tahlili ko'rsatmoqdaki, to'g'ri soliqlar tarkibida ham yagona soliq to'lovidan davlat byudjetiga ajratmaning ulushi unchalik yuqori emas. Shu o'rinda yagona soliq to'lovining Qo'shrabot tumani bo'yicha soliq tushumlari tarkibidagi ahamiyatini yoritish maqsadga muvofiq.

6-jadval

Yagona soliq to'lovini Qo'shrabot tumani bo'yicha soliq tushumlari tarkibidagi ahamiyati¹⁷

Ko'rsatkichlar	2011 yil		2012 yil		2013 yil (1-chorak)	
	mln.so'm	foiz	mln.so'm	foiz	mln.so'm	foiz
Tuman bo'yicha jami soliq tushumlari	5298,6	100,0	6900,0	100,0	2498,5	100,0
<i>shundan:</i>						
- savdo va umumiy ovqatlanish korxonalaridan olinadigan yagona soliq to'lovidan davlat byudjetiga ajratma	167,1	3,2	182,6	2,6	85,4	3,4
- yagona soliq to'lovidan davlat byudjetiga ajratma	126,2	2,4	231,8	3,4	86,5	3,5

¹⁷ Samarqand viloyati Qo'shrabot tumani DSI ma'lumotlari asosida tayyorlandi.


Jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, Qo'shrabot tumanida undiriladigan soliqlar va soliqlarga tenglashtirilgan majburiy to'lovlar 2011 yilda 5298,6 mln.so'mni, 2012 yilda 6900,0 mln.so'mni, 2013 yilning 1-choragida 2498,5 mln.so'mni tashkil etgan. Tumanda undiriladigan soliqlar tarkibida yagona soliq to'lovining ahamiyati ham unchalik yuqori emas. Jumladan, savdo va umumiy ovqatlanish korxonalaridan olinadigan yagona soliq to'lovidan davlat byudjetiga ajratma summasi 2011 yilda 167,1 mln.so'mni yoki jami soliq tushumlarining 3,2 foizini, 2012 yilda 182,6 mln.so'mni yoki jami soliq tushumlarining 2,6 foizini, 2013 yilning 1-choragida 85,4 mln.so'mni yoki jami soliq tushumlarining 3,4 foizini tashkil etib, uning summasini o'sishiga mutanosib ravishda, ulushining ham ortishi kuzatilgan.

Yagona soliq to'lovidan davlat byudjetiga ajratma summasi 2011 yilda 126,2 mln.so'mni yoki jami soliq tushumlarining 2,4 foizini, 2012 yilda 231,8 mln.so'mni yoki jami soliq tushumlarining 3,4 foizini, 2013 yilning 1-choragida 86,5 mln.so'mni yoki jami soliq tushumlarining 3,5 foizini tashkil etib, uning summasini o'sishiga mutanosib ravishda, ulushining ham ortishi kuzatilgan.

Demak, yagona soliq to'lovining davlat byudjeti va to'g'ri soliqlar tarkibidagi ahamiyati unchalik yuqori emas.

2.2. Kichik biznes sub'ektlarini soliqlar vositasida rag'batlantirishda yagona soliq to'lovining ahamiyati

Soddalashtirilgan soliqqa tortish tartibiga o'tgan kichik biznes sub'ektlari bir nechta soliq va majburiy to'lovlar o'rniga yagona soliq to'lovini to'laydilar, ushbu soliqning asosiy stavkasi 2005-2006 yillarda 13 foiz, 2007 yilda 10 foiz, 2007 yilda 10 foiz, 2008 yilda 8 foiz, 2009-2010 yillarda 7 foiz, 2011 yilda 6 foiz, 2012 yilda sanoat sohasidagi korxonalar uchun 5 foiz qilib belgilandi. Yildan-yilga kichik tadbirkorlik sub'ektlari uchun belgilangan yagona soliq to'lovi stavkasining pasaytirib borilishi kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushining oshishiga xizmat qilmoqda.



1-rasm. O'zbekistonda kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushining va yagona soliq to'lovi asosiy stavkasining o'zgarish dinamikasi¹⁸

Ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, tahlil etilayotgan davrda yalpi ichki mahsulotda kichik biznesning ulushi yildan-yilga oshib borgan, 2005 yilda bu ko'rsatkich 38,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2010 yilga kelib 42,5 foizli punktga oshib, 52,5 foizga teng bo'lgan. Buning asosiy sababi kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun yagona soliq to'lovi asosiy stavkasining tushirilganligidir.

Yagona soliq to'lovini to'lovchilar quyidagilardir:

1) mikrofirmalar va kichik korxonalar;

2) xodimlarning sonidan qat'i nazar:

- savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari;

- lotereyalar tashkil qilish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish doirasidagi yuridik shaxslar.

3) oddiy shirkat ishlarini yuritish zimmasiga yuklatilgan (ishonchli shaxs) sherik (ishtirokchi) — yakka tartibdagi tadbirkor.

¹⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat byudjeti parametrlariga doir qarorlari va Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

Yagona soliq to'lovi quyidagi mikrofirmalar va kichik korxonalariga tatbiq etilmaydi:

- aktsiz solig'i to'lanadigan mahsulot ishlab chiqarishni va yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq solinadigan foydali qazilmalarni qazib olishni amalga oshiruvchi mikrofirmalar va kichik korxonalariga, bundan maxsus pechlardan foydalangan holda energiya tejaydigan zamonaviy texnologiyalar asosida pishiq g'isht ishlab chiqaruvchi mikrofirmalar va kichik korxonalar mustasno;

- yagona yer solig'i va qat'iy belgilangan soliq to'lash nazarda tutilgan faoliyat doirasidagi mikrofirmalar va kichik korxonalariga;

- mahsulot taqsimotiga oid bitimlar ishtirokchisi bo'lgan mikrofirmalar va kichik korxonalariga¹⁹.

Soliq solish maqsadida savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari jumlasiga savdo faoliyati, umumiy ovqatlanish sohasidagi faoliyat o'tgan hisobot yili yakunlari bo'yicha asosiy faoliyat turi bo'lgan yuridik shaxslar kiradi.

Umumiy ovqatlanish sohasidagi faoliyat deganda kulinariya, shuningdek boshqa oziq-ovqat mahsulotini tayyorlash, realizatsiya qilish va ularni iste'mol qilishni tashkil etish bo'yicha faoliyat tushuniladi.

Yagona soliq to'lovini to'lovchilar yagona soliq to'lovi to'lash muddatini davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran bir yil muddatga kechiktirish huquqiga ega, kechiktirilgan summalar qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda imtiyozli davr tugaganidan so'ng o'n ikki oy ichida teng ulushlar bilan to'lanadi.

Agar yagona soliq to'lovini to'lovchilar qo'shilgan qiymat solig'i solinadigan oborotni amalga oshirsalar, qo'shilgan qiymat solig'ini ixtiyoriy asosda to'lashlari mumkin. Yuridik shaxslar qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashga o'tish uchun hisobot davri boshlanishidan kamida bir oy oldin, yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar esa, o'z faoliyatini amalga oshirishni

¹⁹ O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. – T.: “Adolat”, 2010 y. – 351-352 b.

boshlaguniga qadar soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organiga yozma bildirish taqdim etadi.

Yagona soliq to'lovini to'lovchilar tomonidan qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashni rad etish keyingi soliq davri boshlanguniga qadar bir oydan kechiktirmay soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organiga O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan shaklda taqdim etiladigan yozma bildirish asosida faqat navbatdagi soliq davrining boshidan amalga oshirilishi mumkin.

Yalpi tushum soliq solish ob'ektidir.

Soliq solish maqsadida yalpi tushum tarkibiga quyidagilar kiritiladi:

1) tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) qo'shilgan qiymat solig'ini chegirgan holda (qo'shilgan qiymat solig'i to'lashga o'tgan soliq to'lovchilar uchun) realizatsiya qilishdan tushgan tushum.

- savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari uchun - tovar oboroti;

- mol-mulkni moliyaviy ijaraga (lizingga) beruvchi yuridik shaxslar uchun - moliyaviy ijara (lizing) bo'yicha foizli daromad summasi;

- vositachilik va topshiriq shartnomalari hamda vositachilik xizmatlari ko'rsatishga oid boshqa shartnomalar bo'yicha vositachilik xizmatlari ko'rsatadigan yuridik shaxslar uchun - ko'rsatilgan xizmatlar uchun haq summasi;

- tayyorlov tashkilotlari uchun - realizatsiya qilingan tovarlarning xarid qiymati bilan sotish qiymati o'rtasidagi farq sifatida hisoblab chiqarilgan yalpi daromad;

- lotereya o'yinlarini tashkil etish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish doirasida yuridik shaxslar uchun - o'yin chiptalarini ularda ko'rsatilgan narx bo'yicha tarqatishdan tushgan tushum;

- tovarlarni tannarxidan yoki olish bahosidan past baholarda realizatsiya qiluvchi, shuningdek tovarlarni tekinga beruvchi yuridik shaxslar uchun - tovarlar tannarxi yoki ularni olish bahosi;

2) boshqa daromadlar²⁰.

Soliq kodeksining 355-moddasiga muvofiq quyidagilar chegirib tashlangan holda hisoblab chiqarilgan yalpi tushum soliq solinadigan bazadir:

1) davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha daromadlar;

2) to'lov manbaida soliq solinadigan dividendlar va foizlar tariqasida olingan daromadlar;

3) dividendlar tariqasida olingan va qaysi yuridik shaxsdan olingan bo'lsa, o'sha yuridik shaxsning ustav fondiga (ustav kapitaliga) yo'naltirilgan daromadlar;

4) hisobot yilida aniqlangan o'tgan yillardagi daromadlar. Mazkur daromadlarga ular qaysi davrda paydo bo'lgan bo'lsa, o'sha davrdagi qonun hujjatlariga muvofiq soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha o'tkazilgan hisob-kitoblar inobatga olingan holda soliq solinishi kerak;

5) ko'p oborotli qaytariladigan taraning qiymati, agar uning qiymati tovarlarni (ishlar va xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushumning tarkibiga ilgari kiritilgan bo'lsa;

6) mahsulot etkazib beruvchilarning siylovi (skidka) tariqasida va asosiy vositalarni tugatishda ularning ilgari qayta baholashlardagi qiymatining kamayishi summasidan ortgan qismi hisobiga olingan boshqa daromadlar;

7) to'liq amortizatsiya qilingan asosiy vositalarni realizatsiya qilishdan yoki tugatishdan olingan daromadlar.

Soliq solinadigan baza yuqoridagi chegirmalardan tashqari quyidagilar uchun kamaytiriladi:

1) transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq to'lovchilar - yuridik shaxslar uchun - transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq summasiga.

2) lotereya o'yinlarini tashkil etish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish doirasida yuridik shaxslar uchun - yutuq (mukofot) fondining summasiga, biroq

²⁰ O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. – T.: “Adolat”, 2010 y. – 357-358 b.

tarqatilgan chiptalarga chiqqan yutuqlarning (mukofotlarning) umumiy summasidan ortiq bo'lmagan miqdoriga;

3) brokerlik tashkilotlari uchun - bitim summasidan birjaga o'tkaziladigan vositachilik yig'imi summasiga;

4) vositachilik, topshiriq shartnomasi bo'yicha vositachilik xizmatlari ko'rsatuvchi yuridik shaxslar uchun - realizatsiya qilingan tovar ulushida tovarlarni import qilishda to'langan bojxona to'lovlari summasiga.

Soliq solinadigan baza quyidagilarga yo'naltirilgan mablag'lar summasiga kamaytiriladi:

- yangi texnologik asbob-uskunalar olishga, sifatni boshqarish tizimlarini joriy etishga, mahsulotlarning xalqaro standartlarga muvofiqligini sertifikatlashtirishdan o'tkazishga, laboratoriya testlari va sinovlarini o'tkazish uchun komplekslar olishga, biroq soliq solinadigan bazaning ko'pi bilan 25 foiziga. Soliq solinadigan bazani kamaytirish yuqorida ko'rsatilgan xarajatlar amalga oshirilgan soliq davridan boshlab, texnologik asbob-uskuna bo'yicha esa u foydalanishga topshirilgan paytdan boshlab besh yil ichida amalga oshiriladi;

- yosh oilalar jumlasidan bo'lgan xodimlarga ipoteka kreditlari bo'yicha badallar to'lashga va (yoki) mulk qilib uy-joy olishga tekin yo'naltirilgan mablag'lar summasiga, lekin soliq solinadigan bazaning ko'pi bilan 10 foiziga.

Yagona soliq to'lovi bo'yicha imtiyozlar: Yagona soliq to'lovini to'lashdan nogironlarning jamoat birlashmalari, "Nuroni" jamg'armasi va "O'zbekiston chernobilchilari" assotsiatsiyasi mulkida bo'lgan, ishlovchilari umumiy sonining kamida 50 foizini nogironlar, 1941-1945 yillardagi urush va mehnat fronti faxriylari tashkil etadigan yuridik shaxslar ozod qilinadi, bundan savdo, vositachilik, ta'minot-sotish va tayyorlov faoliyati hamda lotereyalar tashkil etish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar mustasno. Ushbu imtiyozni olish huquqi belgilanayotganda xodimlarning umumiy soniga shtatda bo'lgan xodimlar kiritiladi²¹.

²¹ O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. – T.: "Adolat", 2010 y. – 361-363 b.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 20 iyundagi PF-3620-sonli Farmoniga asosan kichik biznes sub'ektlari uchun yagona soliq joriy etildi. Bunga asosan ularning barcha soliqlari va to'lovlari o'rniga yalpi tushumdan 13 foizli yagona soliq stavkasi o'rnatildi. Buning natijasida ular uchun amaldagi soliq yuki 15,2 foizdan 13 foizga tushdi.

7-jadval

2005-2013 yillarda yagona soliq to'lovi asosiy stavkasining o'zgarish dinamikasi²² (foizda)

Ko'rsatkichlar	2005 yil	2006 yil	2007 yil	2008 yil	2009-2010 yillar	2011 yil	2012-2013 yillar
Yagona soliq to'lovining asosiy stavkasi	13	13	10	8	7	6	5

2012 yildan yagona soliq to'lovining asosiy stavkasi 6 foiz, sanoat sohasidagi korxonalar uchun 5 foiz qilib belgilandi yoki tahlil qilinayotgan davrda soliq yuki darajasi 8 foizga kamaytirildi. Bu hol ushbu sub'ektlar uchun soliq yukini yanada kamaytirib, ishlab chiqarishni kengaytirishga xizmat qiladi.

Umuman soliqlar va to'lovlar stavkalarini pasaytirilishi, ularni undirish mexanizmlarining takomillashishi amaldagi soliq yukining kamayishiga va byudjetga to'lovlarning o'z vaqtida kelib tushishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shunisi e'tiborliki, tahlil qilinayotgan davrda soliq stavkalarining bir necha foizga kamayishi ushbu soliq turlari bo'yicha byudjetga tushumni kamaytirmadi. Aksincha, soliq tushumlari absolyut miqdorda oshishi kuzatilmoqda. Bu soliq yukining pasayishi bilan iqtisodiyotni rivojlanayotganligidan darak beradi.

Yagona soliq to'lovini yuridik shaxslar mustaqil ravishda belgilangan soliq stavkalaridan kelib chiqib hisoblaydilar. Yagona soliq to'lovi stavkalari 2013 yil uchun quyidagicha belgilangan (8-jadval).

2013 yil uchun belgilangan yagona soliq to'lovi stavkalarining 2012 yil bilan solishtirib, quyidagilarni qayd etishimiz mumkin:

²² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat byudjeti parametrlariga doir qarorlari asosida tayyorlandi.

**Mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun
(savdo va umumiy ovqatlanish korxonalaridan tashqari)
yagona soliq to'lovi stavkalari²³ (2013 yil uchun)**

№	To'lovchilar	Soliq solinadigan bazaga nisbatan soliq stavkalari, foizda
1.	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlari korxonalari, 2-9-bandlarda nazarda tutilganlardan tashqari	6*
2.	Sanoat sohasidagi korxonalar	5
3.	Ommaviy axborot vositalari tahririyatlari, nashriyotlar, matbaa korxonalari, teleradiouzatish kompaniyalari	5
4.	Kompyuter dasturiy mahsulotlarini ishlab chiqish va joriy etish tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiyasi umumiy hajmining kamida 80 foizini tashkil etadigan korxonalar	5
5.	Bojxona rasmiylashtiruvchi bo'yicha xizmatlarni ko'rsatuvchi yuridik shaxslar (bojxona brokerlari)	6
6.	Lombardlar	30
7.	Gastrol-kontsert faoliyati bilan shug'ullanish uchun litsenziyaga ega bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslarni (shu jumladan norezidentlarni) jalb etish yo'li bilan ommaviy tomosha tadbirlarini tashkil etishdan daromad oladigan korxonalar	30
8.	Tayyorlov tashkilotlari, brokerlik idoralari (6-bandda ko'rsatilganlaridan tashqari), shuningdek vositachilik, topshiriq va boshqa shartnomalar bo'yicha vositachilik xizmatlari ko'rsatadigan korxonalar	33**
9.	Qimmatli qog'ozlar bozorida brokerlik faoliyatini amalga oshiradigan korxonalar	13**
10.	Oziq-ovqat va nooziqovqat tovarlarini sotish uchun turg'un savdo shahobchalarini ijaraga berishga ixtisoslashgan (ijaraga berishdan olinadigan daromadlar 60 foizdan ortig'ini tashkil etadigan) korxonalar	30
11.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 10 oktyabrdagi PF-1871-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan ro'yxatda keltirilgan xom ashyo mahsulotlaridan tashqari, o'zi ishlab chiqargan tovarlar, ishlar, xizmatlarni erkin almashtiriladigan valyutadagi eksporti tashkil qiladigan ulushi quyidagilarni tashkil etadigan eksport qiluvchi korxonalar uchun:	
	umumiy realizatsiya hajmida 15 foizdan 30 foizgacha bo'lganda	belgilangan stavka 30%ga pasaytiriladi
	umumiy realizatsiya hajmida 30 foiz va undan yuqori bo'lganda	belgilangan stavka 50%ga pasaytiriladi
12.	Xizmatlar ko'rsatish sohasi korxonalarini uchun plastik kartalar qo'llanib haq to'langan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi bo'yicha	belgilangan stavka 10%ga pasaytiriladi

²³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2013 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi 1887-sonli Qarori (2012 yil 25 dekabr).

1. Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi stavkasi 2012 yilgi darajada – 6 foiz miqdorida saqlanib qolindi.

2. Sanoat sohasidagi mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi stavkasi 2012 yilgi darajada – 5 foiz miqdorida saqlanib qolindi.

3. Ommaviy axborot vositalari tahririyatlari, nashriyotlar, matbaa korxonalari, teleradiouzatish kompaniyalari uchun yagona soliq to'lovi stavkasi 2012 yilgi darajada – 5 foiz miqdorida saqlanib qolindi.

4. Bojxona rasmiylashtiruv bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi yuridik shaxslar (bojxona brokerlari) uchun yagona soliq to'lovi stavkasi 6 foiz miqdorida saqlanib qolindi.

5. Kompyuter dasturiy mahsulotlarini ishlab chiqish va joriy etish tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiyasi umumiy hajmining kamida 80 foizini tashkil etadigan korxonalar uchun 5 foiz miqdorida imtiyozli stavkalar saqlanib qolindi.

6. Eksport qiluvchi kichik korxonalar (mikrofirmalar) uchun yagona soliq to'lovi bo'yicha 2012 yilda amal qilgan, realizatsiyaning umumiy hajmida o'zi ishlab chiqargan tovarlarning (ishlar, xizmatlarning, ularni bajarish, ko'rsatish joyidan qat'i nazar) erkin almashtiriladigan valyutadagi eksporti ulushiga bog'liq holda soliq solishning regressiv shkalasi saqlanib qolindi, bundan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 10 oktyabrdagi PF-1871-son Farmoni bilan tasdiqlangan ro'yxatdagi xom ashyo tovarlari mustasno. Eksport ulushi:

– sotishning umumiy hajmida 15 dan 30 foizgacha bo'lganda, belgilangan stavka 30 foizga pasaytiriladi;

– sotishning umumiy hajmida 30 foiz va undan ko'p bo'lganda, belgilangan stavka 50 foizga pasaytiriladi.

7. Gastrol-kontsert faoliyati bilan shug'ullanishga litsenziyasi bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslarni (shu jumladan norezidentlarni) jalb etish yo'li bilan ommaviy tomosha tadbirlarini tashkil etishdan daromad oluvchi

mikrofirma va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi stavkasi soliq solinadigan bazaga nisbatan 30 foiz miqdorida belgilangan.

8. Quyidagi mikrofirma va kichik korxonalar uchun:

- tayyorlov tashkilotlari, brokerlik idoralari (qimmatli qog'ozlar bozorida brokerlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar bundan mustasno) hisoblanadigan, shuningdek vositachilik, topshiriq shartnomasi va vositachilik xizmatlarini ko'rsatishga doir boshqa shartnomalar bo'yicha vositachilik xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar uchun yagona soliq to'lovi stavkasi soliq solinadigan bazaga nisbatan 33 foiz miqdorida belgilangan;

- qimmatli qog'ozlar bozorida brokerlik faoliyatini amalga oshiradigan korxonalar uchun yagona soliq to'lovi stavkasi soliq solinadigan bazaga nisbatan 13 foiz miqdorida belgilangan.

9. Oziq-ovqat va nooziq-ovqat tovarlarini sotish uchun turg'un savdo shoxobchalarini ijaraga berishga ixtisoslashgan (ijaraga berishdan olinadigan daromad 60 foizdan yuqori bo'lgan) korxonalar uchun yagona soliq to'lovi stavkasi 2012 yilgi darajada – soliq solinadigan bazaga nisbatan 30 foiz miqdorida saqlanib qolindi.

10. Umumiy ovqatlanish korxonalarini uchun yagona soliq to'lovi stavkasi soliq solinadigan bazaga nisbatan 10 foiz, umumta'lim maktablari, maktab-internatlar, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy o'quv yurtlariga xizmat ko'rsatuvchi ixtisoslashgan umumiy ovqatlanish korxonalarini uchun esa– soliq solinadigan bazaga nisbatan 8 foiz miqdorida saqlanib qolindi.

11. Quyidagi joylarda joylashgan chakana savdo korxonalarini uchun (bundan chakana dorixona tashkilotlari mustasno):

- aholisi soni 100 ming va undan ko'p kishidan iborat shaharlarda – yagona soliq to'lovi stavkasi 4 foiz miqdorida saqlanib qolindi;

- boshqa aholi punktlarida – yagona soliq to'lovi stavkasi 2 foiz miqdorida saqlanib qolindi;

- borish qiyin bo'lgan va tog'li tumanlarda – yagona soliq to'lovi stavkasi 1 foiz miqdorida saqlanib qolindi.

12. Ulgurji savdo korxonalari uchun (bundan ulgurji dorixona tashkilotlari mustasno) joylashgan joyidan qat'i nazar yagona soliq to'lovi stavkasi 5 foiz miqdorida saqlanib qolindi.

13. "Sharobsavdo" ixtisoslashgan hududiy bazalari chakana va ulgurji tovar aylanmasi bo'yicha 2013 yilda yagona soliq to'lovini 5 foiz stavka bo'yicha to'laydi.

14. Ulgurji va chakana savdo qiluvchi dorixona tashkilotlari uchun yagona soliq to'lovi stavkasi joylashgan joyiga qarab quyidagicha belgilandi:

- aholisi soni 100 ming va undan ko'p kishidan iborat shaharlarda – 3 foiz miqdorida;

- boshqa aholi punktlarida – 2 foiz miqdorida;

- borish qiyin bo'lgan va tog'li tumanlarda – 1 foiz miqdorida saqlanib qolindi.

15. Aholi punktlarini borish qiyin bo'lgan va tog'li tumanlarga kiritish "Aholi punktlarini borish qiyin bo'lgan va tog'li hududlar tarkibiga kiritish tartibi to'g'risidagi yo'riqnoma"ga muvofiq amalga oshiriladi.

16. Xizmat ko'rsatish sohasi, umumiy ovqatlanish, chakana savdo korxonalari, shu jumladan chakana dorixona tashkilotlari uchun (ulgurji savdo va ulgurji dorixona muassasalaridan tashqari) plastik kartalar qo'llanib haq to'langan holda sotilgan tovarlar (ko'rsatilgan xizmatlar) hajmi bo'yicha belgilangan stavkani 10 foizga pasaytirilishi saqlanib qolindi.

17. Lotereyalar tashkil etish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi korxonalar (mazkur faoliyat turi doirasida) uchun yagona soliq to'lovi stavkasi soliq solinadigan bazaga nisbatan 33 foiz miqdorida belgilangan.

Yagona soliq to'lovi soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilar uchun yagona soliq to'lovi summasi byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'i summasiga, lekin yagona soliq to'lovi summasining 50 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorga kamaytiriladi.

Qo'shilgan qiymat solig'ini ixtiyoriy ravishda to'lashga kalendar yil boshidan e'tiboran o'tmagan to'lovchilar yagona soliq to'lovi summasini qo'shilgan qiymat solig'i hisoblab chiqarilgan hisobot davriga to'g'ri keladigan summaga kamaytiradi.

Yagona soliq to'lovining hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi.

Yagona soliq to'lovi quyidagicha to'lanadi:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan - hisob-kitobni taqdim etish muddatidan kechiktirmay;

- mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan - har oyda, keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay²⁴.

Yagona soliq to'lovining amaldagi holatini Qo'shrabot tumanida joylashgan kichik tadbirkorlik sub'ektlari misolida ko'rib chiqamiz.

9-jadval

“Zarband” XKning yagona soliq to'lovi hisob-kitobi²⁵ (2012 yil)

T/ r	KO'RSATKICHLAR	Jami (ming so'm)
1.	Tovar (ish, xizmat)larni realizatsiya qilishdan sof tushum	47705,0
2.	Faoliyat turlari bo'yicha tushumning tovar (ish, xizmat)larni realizatsiya qilishdan jami tushumdagi salmog'i, %da	100
3.	Boshqa daromadlar	-
4.	Soliqqa tortiladigan yalpi tushum	47705,0
5.	Imtiyozlar	-
6.	Soliqqa solinadigan baza	47705,0
7.	Yagona soliq to'lovining belgilangan stavkasi, %da	6 %
8.	Yagona soliq to'lovi summasi	2862,3

²⁴ O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. – T.: “Adolat”, 2010 y. – 364 b.

²⁵ Korxonaning yillik hisobotlari.

“Zarband” XKning asosiy faoliyat turi ishlab chiqarish hisoblanib, 2012 yilda mahsulot (ish, xizmat) sotishdan olgan sof tushumi 47705,0 ming soʻmni tashkil etgan.

Jadval maʼlumotlarining tahlili koʻrsatmoqdaki, 2012 yilda “Zarband” XKning tovar (ish, xizmat)larni realizatsiya qilishdan sof tushumi 47705,0 ming soʻmni tashkil etgan. Korxonaning asosiy faoliyat turi ishlab chiqarish hisoblanadi.

“Zarband” XKning 2012 yildagi soliqqa tortiladigan yalpi tushum summasi 47705,0 ming soʻmni tashkil etgani holda, yalpi tushumdan chiqarib tashlanadigan summalar, yaʼni imtiyozlar mavjud emas.

Korxonaning soliqqa solinadigan bazasi ishlab chiqarish faoliyati boʻyicha 47705,0 ming soʻmni tashkil etgan. 2012 yil uchun ushbu faoliyat uchun soliq stavkasi 6 foiz boʻlganligini eʼtiborga olib, soliq summasi 2862,3 ming soʻmni tashkil etgan.

III. BOB. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA KICHIK BIZNES SUB'EKTLARINI SOLIQLAR VOSITASIDA RAG'BATLANTIRISH MASALALARI

3.1. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida kichik biznes sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash va soliqlarning rag'batlantiruvchi ahamiyatini oshirish masalalari

Mamlakatimizni iqtisodiy rivojlantirish, uzoq muddatli strategik maqsadlarni amalga oshirishda O'zbekistonning jahon bozorida raqobatdoshligini oshirish va mavqeyini mustahkamlashga yo'naltirilgan tarkibiy o'zgarishlar, zamonaviy yuksak texnologiyalarga asoslangan eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni ta'minlaydigan ishlab chiqarishlarni jadal rivojlantirish asosiy ustuvor yo'nalishlardan biridir.

Shundan kelib chiqib, mamlakatimizda iqtisodiyotni modernizatsiyalash va raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha, birinchi navbatda, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, kooperatsiya aloqalarini kengaytirish, mustahkam hamkorlikni yo'lga qo'yish, mamlakatimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlarga ichki talabni rag'batlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozidan keyingi davrda aholini ish bilan ta'minlash muammolarini hal qilishda jiddiy sifat o'zgarishlari ko'zga tashlanmoqda. Ushbu o'ta dolzarb bo'lgan masalani echishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish bilan birga, xizmat ko'rsatish sohasi va kasanachilikning turli shakllari joriy etildi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 15 maydagi "Tadbirkorlik faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1112-sonli qaroriga ko'ra, 2009 yil 1 iyundan boshlab:

- kadastr hujjatlarini rasmiylashtirish bo'yicha xizmat ko'rsatish tariflarini;

- tadbirkorlik ob'ektlarining arxitektura - rejalashtirish topshiriqlarini ishlab chiqish va ularning loyiha hujjatlarini ekspertizadan o'tkazish qiymatini;

- tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun boj haqini – eng kam ish haqi miqdorining 5 barobaridan 2 barobari miqdorigacha;

- tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan banklarda hisob-raqamlarini ochish uchun to'lovlarni – eng kam ish haqi miqdorining 1 barobaridan 0,5 barobari miqdorigacha, qishloq joylarda esa – eng kam ish haqining 0,1 barobari miqdorigacha pasaytirish takliflari ma'qullandi va amaliyotda samarali qo'llanilib, o'zining ijobiy samarasini ko'rsatmoqda.

Kichik biznes sub'ektlari o'z uylarida ishlayotgan (kasanachilik bilan shug'ullanayotgan) fuqarolar bilan, qonun hujjatlarida belgilangan xodimlar sonining cheklangan normatividan ko'pi bilan 30 foiz oshgan miqdorda mehnat shartnomalari tuzganda, kichik korxonalar uchun nazarda tutilgan kafolatlar, imtiyozlar va preferentsiyalar mazkur korxonalar uchun saqlanib qolinishi belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 30 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2012 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-1675-sonli Qaroriga muvofiq, 2012 yil 1 yanvardan:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi stavkasi 7 foizdan 6 foizga tushirilishi yagona soliq to'lovchilar ko'payishiga, davlat byudjetiga qo'shimcha mablag' tushishini ta'minladi. Uning yalpi ichki mahsulotdagi hajmi ham oshib, mahsulotlarning turi ko'paydi va mahsulotlarning tannarxi kamayib aholining iste'mol darajasi oshdi.

- yagona soliq to'lovini to'lovchilar uchun 2011 yilning 1 iyulidan yagona soliq to'lovini belgilangan stavkalar bo'yicha, biroq eng oz miqdordan – soliq to'lovchi egallab turgan yer maydonidan kelib chiqib hisoblanadigan yer solig'ining 3 baravaridan kam bo'lmagan miqdorda to'lash tartibi belgilandi.

- Moliya vazirligiga va Iqtisodiyot vazirligi bilan birgalikda, tadbirkorlik sub'ektlarining qaerda joylashganiga va bajarayotgan faoliyat turiga qarab yagona soliq to'lovining eng oz miqdoriga nisbatan pasaytiruvchi koeffitsientlarini belgilash xuquqi berildi.

- bojxona hujjatlarini rasmiylashtirish bilan shug'ullanuvchi (bojxona brokerlari) yuridik shaxslarga yagona soliq to'lovi stavkasi 6 foiz qilib belgilandi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini modernizatsiyalash sharoitida amalga oshirilayotgan islohotlar o'zining samarasini ko'rsatmoqda. Oxirgi yillarda mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirish borasida qo'lga kiritilgan natijalar Xalqaro valyuta jamg'armasi, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki va boshqa nufuzli xalqaro moliya tashkilotlari tomonidan yuksak baholanmoqda.

2011 yili mamlakatimizda yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'ati 8,3 foizni tashkil etdi, 2000-2011-yillar mobaynida yalpi ichki mahsulot hajmi 2,1 barobar oshdi. Mazkur ko'rsatkich bo'yicha O'zbekiston dunyoning iqtisodiyoti jadal rivojlanayotgan mamlakatlari qatoridan joy oldi.

Iqtisodiyotimizda yuz berayotgan jiddiy tarkibiy va sifat o'zgarishlarini birgina misolda, ya'ni 2000-yilda mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotini shakllantirishda sanoat ishlab chiqarishining ulushi bor-yo'g'i 14,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2011-yilda bu ko'rsatkich 24,1 foizga yetganida yaqqol ko'rish mumkin.

Izchillik bilan amalga oshirilayotgan, birinchi navbatda soliq yukini kamaytirishga qaratilgan oqilona soliq siyosati iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarga, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning ishbilarmonlik faolligi va moliyaviy barqarorligini yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

Xususan, 2011-yilda soliq yuki, 1991-yil bilan solishtirganda, yalpi ichki mahsulotga nisbatan qariyb 2 barobar kamayib, 41,2 foizdan 22 foizga tushdi²⁶.

²⁶ Karimov I.A. "2012-yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi". – T.: O'zbekiston, 2012. 36 b.

Oxirgi yillarda soddalashtirilgan soliqqa tortish tartibini qo'llashda bir qancha o'zgarishlar kiritildi, bunda me'yoriy miqdorlarning joriy etilishini yuz bergan tub o'zgarishlar sifatida baholash mumkin. Mazkur me'yorlarning joriy etilish va ko'lamining kengayib borish bosqichlari quyidagilardan iborat:

- mamlakatimizda dastlab O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yilning 29-dekabridagi "O'zbekiston Respublikasining 2009 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi 1024-sonli qaroriga asosan yagona soliq to'lovi to'lovchilari uchun me'yoriy miqdorlar qo'llanildi. Ushbu qarorga muvofiq, 2009 yilning 1 yanvaridan boshlab, avval xususiylashtirilgan korxonalar - sotilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) hajmi so'nggi ikki chorakda ob'ektiv sabablarsiz, o'rnatilgan tartibda joriy etilgan mulk va yer solig'ining mo'ljaldagi o'n karra miqdoridan kamroq summani tashkil etgan yagona soliq to'lovchilar soliq organi bildirishnomasiga asosan umumbelgilangan soliq solish tizimiga o'tishini belgilovchi tartib o'rnatildi. Ushbu holatda ob'ektiv sabablarga taraflarning xohish-irodasi va harakatlariga bog'liq bo'lmagan, ular tomonidan qabul qilingan majburiyatlar bajarila olmaydigan tabiat hodisalari, ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, O'zbekiston Respublikasi Hukumatining tovarlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarishni va realizatsiya qilishni to'xtatib turish to'g'risidagi qarori, yuridik shaxsni tugatish yoki bankrot deb topish to'g'risidagi qarorlarning qabul qilinishi holatlari asos bo'ladi.

- 2010 yilning 1-iyulidan boshlab yagona soliq to'lovchi chakana savdo korxonalari, mikrofirmalar va xizmat ko'rsatish sohasining kichik korxonalari tomonidan to'lanadigan yagona soliq to'lovining miqdori xuddi shunday faoliyat turini amalga oshirayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to'lanadigan qat'iy belgilangan soliq miqdoridan kam bo'lmasligi lozimligi belgilab qo'yildi.

- 2011 yilning 1 yanvaridan chakana savdo, umumiy ovqatlanish va qurilish sohasi korxonalari uchun xodimlar soni va mehnatga haq to'lash fondining eng kam me'yorlari belgilandi. Davlat soliq xizmati organlariga ish beruvchilar tomonidan tasdiqlangan me'yorlariga rioya qilmaslik holatlari

aniqlanganda, xodimlar soni va mehnat haqi fondining tasdiqlangan eng kam me'yorlaridan kelib chiqib yagona ijtimoiy to'lov, fuqarolarning sug'urta badallari va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini qo'shimcha hisoblash huquqi berildi.

- 2011 yilning 1 iyuldan yagona soliq to'lovchi mikrofirma va kichik korxonalar to'laydigan yagona soliq to'lovining eng kam miqdori, ular egallab turgan maydondan hisoblab chiqarilgan yer solig'i summasining 3 baravari miqdoridan kam bo'lmashligi bo'yicha me'yor tatbiq etilishi belgilab qo'yildi.

- "Sharobsavdo" ixtisoslashgan hududiy bazalari chakana va ulgurji tovar aylanmasi bo'yicha 2013 yilda yagona soliq to'lovini 5 foiz stavka bo'yicha to'laydi.

- 2013 yilning 1 yanvaridan boshlab barcha yagona soliq to'lovi to'lovchilar uchun (chakana savdo korxonalari bundan mustasno) yagona soliq to'lovining eng kam miqdorini hisoblashda yagona baza etib, ular egallab turgan yer uchastkasi maydonidan kelib chiqib hisoblanadigan yer solig'ining uch karra miqdoridagi summa belgilandi. Bunda chakana savdo korxonalari uchun aynan shu turdagi faoliyatni amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to'lanadigan qat'iy belgilangan soliq summasidan kelib chiqib yagona soliq to'lovining eng kam miqdorini hisoblash tartibi saqlanib qolindi.

Mazkur me'yorlarning joriy etilishi faoliyat turlariga muvofiq ravishda tabaqalashtirilgan yagona soliq to'lovi stavkalarini qo'llash amaliyotini bir muncha chegaralab qo'ydi, ya'ni yalpi daromadi yuqori bo'lmagan mikrofirma va kichik korxonalarda belgilangan stavkalar o'rniga me'yoriy miqdorning qo'llanishi mazkur kichik tadbirkorlik sub'ektlarida soliq yukining keskin oshib ketishiga olib keladi. Bu ayniqsa savdo, umumiy ovqatlanish, xizmat ko'rsatish va qurilish sohasida faoliyat yurituvchi kichik biznes sub'ektlarida yaqqol darajada ko'zga tashlanadi.

Soddalashtirilgan soliqqa tortish tartibida me'yoriy miqdorlarning joriy etilishi bir tomondan xufyona daromadni, xodimlar sonini va mehnat haqi fondini legallashtirishga hamda byudjet daromadlarini ko'payishiga qaratilgan

bo'lsa, ikkinchi tomondan kam oborotga ega bo'lgan kichik biznes korxonalarida soliq yukini oshishini keltirib chiqaradi.

Kelgusida kichik biznes korxonalarini soddalashtirilgan tartibda soliqqa tortishda qo'llaniladigan me'yoriy miqdorlarni takomillashtirish va yagona soliq to'lovi stavkalarini optimallashtirish quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq:

- soddalashtirilgan soliqqa tortish tartibida me'yoriy miqdorlarni qo'llashda mazkur miqdorlarni faoliyat turlariga qarab tabaqalashtirish bilan birga kichik biznes sub'ektlarining olgan daromadlariga mos ravishda tabaqalashtirish zarur;

- yagona soliq to'lovi stavkasini belgilashda faoliyat turlari va kichik tadbirkorlik sub'ektlarining joylashgan hududi (xuddi savdo korxonalariga o'rnatilgan yagona soliq to'lovi stavkalari singari) hisobga olinishi maqsadga muvofiq;

- umumiy ovqatlanish korxonalarida asosiy xodimlar sonining eng kam me'yorlari ushbu korxonalarining joylashgan joyiga (shaharlarda, qishloqlarda, uzoq tog'li tumanlarda) qarab tabaqalashtirilishi zarur;

- qurilish tashkilotlarida ishlayotgan ishchilar sonining eng kam me'yorlarini belgilashda qurilish ishlarining xususiyatlari (masalan, yo'l qurilishi, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, burg'ulash) inobatga olinishi maqsadga muvofiq.

Kichik korxonalarni soliqqa tortish mezonini sifatida faqat ishchilar sonidan kelib chiqib aniqlanishi soliq to'lovchilarni soliqdan qochish uchun imkoniyat yaratib bermoqda. Soddalashtirilgan soliqqa tortishga o'tish maqsadida qator korxonalar ishlovchi xodimlarni rasmiylashtirmasdan yollab ishlatishga harakat qiladilar. Buning natijasida ularga ish haqini noqonuniy usulda berilishi, naqd pullarning bankdan tashqari aylanishiga olib kelishi bilan bir vaqtda xufyona iqtisodiyotning kengayishiga olib kelmoqda. Shuning uchun kichik korxonalarni soliqqa tortishning jahon tajribasidan kelib chiqib, mikrofirma va kichik korxonalarni aniqlash mezonlariga, ishlovchilar soni bilan birga, tovar aylanmasini ham kiritish zarur.

3.2. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida kichik biznes sub'ektlarini soliqlar vositasida rag'batlantirishning ustuvor yo'nalishlari

Respublikamizda 2010 yildan boshlab yagona soliq to'lovini belgilangan stavkalar asosida, biroq ma'lum bir faoliyat turlari bo'yicha o'rnatilgan bazaviy me'yorlardan kam bo'lmagan miqdorda hisoblab chiqish amaliyoti yo'lga qo'yildi. Bazaviy me'yorlarni xususiyatlaridan kelib chiqib, quyidagi guruhlariga ajratish mumkin.

10-jadval

Kichik biznes sub'ektlarini soliqqa tortishdagi bazaviy me'yorlar²⁷

Bazaviy me'yorlar tatbiq qilinadigan soliq to'lovchilar	Soliq yoki majburiy to'lov turi	Qo'llaniladigan bazaviy me'yorning xususiyati
Chakana savdo korxonalarini, xizmat ko'rsatish sohasidagi mikrofirmalar va kichik korxonalar	Yagona soliq to'lovi	Aynan shunday faoliyat uchun yakka tadbirkorlar to'laydigan qat'iy belgilangan soliq summasidan kam bo'lmagan miqdorda
YaST to'lovchi korxonalar (chakana savdo va xizmat ko'rsatish sohasidagi mikrofirmalar va kichik korxonalardan tashqari)	Yagona soliq to'lovi	Egallab turgan yer maydonidan kelib chiqib hisoblanadigan yer solig'ining uch baravaridan kam bo'lmagan miqdorda
Chakana savdo, umumiy ovqatlanish va qurilish tashkilotlari	Yagona ijtimoiy to'lov, sug'urta badali, daromad solig'i	Adliya vazirligida 23.02.2011 yilda 2200-son bilan ro'yxatga olingan Nizom bo'yicha hisoblab chiqiladi
Yuk tashish bilan shug'ullanuvchi yagona soliq to'lovchini to'lovchi korxonalar	Yagona soliq to'lovi	Xuddi shunday faoliyat uchun yakka tadbirkorlar to'laydigan soliq stavkalaridan kelib chiqib, har bir transport vositasini hisobga olgan holda belgilanadi

Keltirilgan ma'lumotlardan ko'rish mumkinki, kiritilgan bazaviy me'yorlarning 3 tasi yagona soliq to'loviga tegishli. Kiritilgan mazkur bazaviy me'yorlar tadbirkorlik sub'ektlarining soliqdan qochish harakatlariga qarshi choralar sifatida qo'llanilmoqda. Bazaviy me'yorlarning mohiyatiga e'tibor berib, ulardan nima maqsad ko'lanayotganligini tahlil qilib, quyidagilarni qayd etish mumkin.

²⁷ Niyazmetov I. Soddalashtirilgan soliqqa tortish tizimining ijobiy va salbiy jihatlari. //Moliya. № 4 -2012. 65 b.

Birinchiidan, bazaviy me'yorlar soliqdan qochish imkoniyati mavjud bo'lgan soliq to'lovchilardan byudjetga ma'lum bir miqdordagi soliq summasini undirishni nazarda tutadi.

Ikkinchiidan, bazaviy me'yorlar ayrim jismoniy ob'ektlarga yoki qat'iy belgilangan soliq miqdorlariga bog'lab qo'yilganligi yagona soliq to'lovining qayishqoq mexanizm emasligini namoyon qilmoqda.

Qayd etib o'tilganidek, chakana savdo va xizmat ko'rsatish sohasidagi mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi xuddi shunday faoliyat bilan shug'ullanuvchi yakka tadbirkorning qat'iy belgilangan solig'idan kam bo'lmagan miqdorda hisoblab chiqiladi. Bunda yuridik shaxs maqomidagi sub'ektning ish haqi bilan bog'liq soliqlari va boshqa majburiy to'lovlari hisobga olinmagan. Bu holat turli maqomdagi tadbirkorlik sub'ektlari o'rtasida soliq yuki nomutanosibligini keltirib chiqarmoqda. O'z navbatida yuridik shaxs maqomidagi sub'ekt o'z faoliyatini tugutib, yakka tadbirkor sifatida qayta tashkil qilishga undaydi.

Bazaviy me'yorlar bilan bog'liq muammolardan yana biri faoliyati mavsumiy xususiyatga ega bo'lgan korxonalarga, ya'ni qurilish tashkilotlariga tegishlidir.

Bizningcha, yagona soliq to'lovi summasini muayyan ob'ektlarga bog'liq qilib belgilanishi bugungi kun nuqtai-nazariyadan to'g'ri qo'llanilayotgan chora sifatida qaralsada, soddalashtirilgan tartibni yanada murakkablashishiga olib kelmoqda.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini erkinlashtirish va modernizatsiyalash sharoitida soliq siyosatini yanada takomillashtirish, kichik biznes sub'ektlarini soliqlar vositasida rag'batlantirish mexanizmini ko'chaytirish bo'yicha quyidagi tavsiyalarni keltirish mumkin:

- daromadlarning yillik deklaratsiyasi shakliga bosqichma-bosqich o'tish masalasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan to'lanayotgan soliqlar va majburiy to'lovlarning to'lash muddatlarini avans to'lovlarini amalga oshirish muddatlari sifatida saqlab qolgan holda, ular

bo'yicha hisob-kitob va hisobotlarini moliya yili yakuni bilan bir marotaba taqdim etilishini joriy qilish;

- kichik korxonalarni soliqqa tortishning jahon tajribasidan kelib chiqib, mikrofirmalar va kichik korxonalarni aniqlash mezonlariga, ishlovchilar soni bilan birga, realizatsiya hajmini (tovar aylanmasini) ham kiritish zurrur.

Shu o'rinda, xorijiy mamlakatlarda kichik biznes sub'ektlarini aniqlash mezonlari va soliqqa tortish tajribasiga to'xtalib o'tish lozim. Xususan, Rossiya Federatsiyasida mamlakat qonunchiligiga asosan o'rtacha ishchilar soniga qarab aniqlanadi. Shuningdek, soddalashtirilgan soliq tizimiga o'tishi uchun uchta asosiy mezon talablariga mos kelishi lozim. Ya'ni, korxonaning 9 oylik daromadi miqdori 15 mln.rubldan yuqori bo'lmasligi lozim, korxonada ishlovchilar soni 100 kishidan ko'p bo'lmasligi hamda asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar qoldiq qiymati 100 mln.rubldan yuqori bo'lmasligi lozim.

Evropaning Germaniya, Frantsiya va Italiya kabi mamlakatlarida kichik biznes sub'ektlari mikrofirmalar, kichik va o'rta korxonalarga bo'linib, mezon sifatida ishchilarning ish bilan bandligi va yillik oborot ko'rsatkichlari qo'llanilib, pasaytirilgan stavkalarda foydasidan korporatsiya solig'ini to'laydilar.

Yaponiyada kichik biznes sub'ektlarini aniqlash mezoni faoliyat turlariga qarab ishchilar soni va yillik daromadi belgilangan bo'lib, kichik biznes sub'ektlari amaldagi 30 foiz o'rniga pasaytirilgan 22 foiz stavkada korporatsiya solig'ini to'laydilar. Pasaytirilgan stavkaning qo'llanilishi uchun korxonaning ustav jamg'armasi 100,0 mln.yenadan kam bo'lishi va yillik daromad 8,0 mln.yenadan kam bo'lishi lozim.

So'nggi yillarda tadbirkorlik sohasida qo'lga kiritgan yutuqlar, avvalo, mamlakatimiz iqtisodiyotini tubdan tarkibiy o'zgartirish va diversifikatsiya qilish, qisqa muddatda mutlaqo yangi, iqtisodiyot tarmoqlarini barpo etish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash dasturlarini amalga oshirish, zamonaviy bozor infratuzilmasini shakllantirish borasida o'z

vaqtida boshlangan, chuqur o'ylangan va uzoq istiqbolga mo'ljallangan ishlarning natijasidir.

Soddalashtirilgan soliqqa tortish tartibining eng asosiy kamchiligidan yana biri shuki, kichik biznes sub'ekti mezonini belgilash faqatgina ishlovchilar soniga qarab belgilanadi. Bu esa, yirik tovar aylanmasiga ega bo'lgan va hashamatli mol-mulklarga egalik qilayotgan tadbirkorlik sub'ektlarining ham kam soliq to'lash ilinjida chegaralangan ishlovchilar soni qolipiga kirishiga zamin yaratadi.

Respublikamizda xususiy tarmoqning jadal rivojlanishi, uning mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini ko'payishini ta'minlash, kichik biznes va fermerlikni rivojlantirish borasidagi ishlarni chuqurlashtirish va ko'lamini kengaytirishdan iborat ekanligi belgilab berilishi tadbirkorlik faoliyati sohasida ulkan imkoniyatlar yaratildi.

Shu o'rinda alohida ta'kidlash lozimki, avvalombor, bu sohadagi dolzarb vazifalarni ro'yobga chiqarish uchun huquqiy poydevorni takomillashtirish nazarda tutiladi. Bu vazifalar esa, kichik biznesni jadal rivojlantirish, haqiqiy mulkdorlarning keng qatlamini shakllantirish, xorijiy sheriklar va sarmoyadorlar bilan ishbilarmonlik aloqalarini kengaytirish, eksport mahsulotlarini tashqi bozorlarga olib chiqish, qo'shma korxonalar ochish, xorijiy sarmoyalarni to'g'ridan-to'g'ri jalb etish, tadbirkorlarning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilishdan iboratdir. Chunki, yaqin 5-10 yil ichida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining mamlakat ichki mahsulotidagi ulushini 55-60 foizga etkazish, bu tizimni aholi daromadlari o'sishi va bandligining asosiy manbaiga aylantirish, respublikamizda siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikning asosi bo'lmish haqiqiy muldorlar sinfini shakllantirish belgilangan.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, davlat tomonidan olib borilayotgan islohotlar hamda Prezidentimiz tomonidan zikr etilgan ustuvor vazifalarning barchasi soliq siyosatini takomillashtirish, soliqlarni rag'batlantiruvchi rolini keskin oshirish va soliq yukini engillashtirish bilan bevosita bog'liqdir.

Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar keng qamrovli va chuqur ekanligi soliq siyosatini yanada takomillashtirib borishni kun tartibidagi dolzarb vazifa qilib qo'yimoqda. Bu borada davlat byudjeti xarajatlari o'z vaqtida moliyalashtirilishi uchun iqtisodiyotda soliq yukini kamaytirish muammosini o'rganish, soliqqa tortishning rag'batlantiruvchi va tartibga soluvchi rolini kuchaytirish, samarasiz davlat xarajatlarini qisqartirish va ularni muqobillashtirish, soliq tizimini majmuaviyligini va oshkoraligini, byudjetga to'lovlar intizomini mustahkamlash kerak.

Yagona soliq to'lovining joriy etilishi, shubhasiz, kichik biznesni soliqqa tortishni va uning hisobotini sezilarli darajada soddalashtirib, uning rivojlanishini rag'batlantirmoqda. Biroq shunga qaramasdan, soliqqa tortish, hisob va hisobotning soddalashtirilgan tizimi, bir qator ijobiy jihatlarga ega bo'lishi bilan birga (hisob-kitob va hisobotning soddalashuvi, umumdavlat va mahalliy soliqlarning yagona soliq bilan almashishi), sezilarli kamchiliklarni ham o'z ichiga oladi. Jumladan, kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soliqqa tortish tizimi, hisob-kitob va hisobotining real soddalashuvi o'rniga turli faoliyat turlari uchun alohida buxgalteriya hisob-kitobi va hisoboti nazarda tutilgan.

Shuningdek, hududlar iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda kichik biznesning o'rnini yanada oshirish, mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun ularning hududlardagi joylashuviga muvofiq qo'shimcha soliq imtiyozlari va preferentsiyalari berilishi maqsadga muvofiq. Shu orqali mamlakatimizning chekka hududlarida ishlab chiqrish va xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlantirishga erishish mumkin.

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari samaradorligini oshirish yuzasidan quyidagi takliflarni keltirish maqsadga muvofiq:

– sanoatda kichik biznes korxonalarining ulushini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarni takomillashtirish;

– iqtisodiyotni modernizatsiyalash va tuzilmaviy siljishlar asosida eksportni rag'batlantirish hamda eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni rivojlantirishda sezilarli soliq imtiyozlarini yaratish;

– kichik biznes sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida, yagona soliq to'lovini to'lovchi yangi tashkil etilayotgan mikrofirmalar va kichik korxonalar yagona soliq to'lovini to'lash muddatini to'lash muddatini kechiktirish imtiyozidan foydalanish muddatini 12 oy o'rniga 24 oyga uzaytirish kerak;

– mahalliy xom-ashyo asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarayotgan mikrofirmalar va kichik korxonalar regressiv soliq stavkalarini qo'llash zarur;

– mikrofirmalar, kichik korxonalar uchun yagona ijtimoiy to'lovning kamaytirilgan imtiyozli stavkasini joriy etish lozim;

– soliq qonunchiligida xizmatlar ko'rsatish sohasi mikrofirmalari va kichik korxonalari uchun plastik kartalar qo'llanib haq to'langan holda ko'rsatilgan xizmatlar hajmi bo'yicha tasdiqlangan stavka 10 foizga pasaytirilishi belgilangan. Plastik kartalarning ahamiyatini yanada oshirish uchun uni qo'llab haq to'langan xizmatlar hajmiga belgilangan stavka 20 foizga pasaytirilishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

XULOSA

Mazkur bitiruv malakaviy ishida iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida kichik biznes sub'ektlarini soliqlar vositasida rag'batlantirish, yagona soliq to'lovining bu boradagi ahamiyatini nazariy va amaliy jihatdan o'rganish natijasida quyidagi xulosalar ishlab chiqildi.

1. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashda kichik biznes sub'ektlari faoliyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Kichik biznes sub'ektlarining rivojlanishiga keng yo'l ochish iste'mol bozorida tovar va xizmatlar taqchilligi hamda mablag' etishmovchiligi sharoitida ko'p sarmoya sarf qilmasdan, qisqa muddat ichida raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatini yaratadi. Shuning uchun respublikamiz hukumati tomonidan kichik biznes sub'ektlarini soliqlar orqali rag'batlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

2. O'zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligida kichik biznes sub'ektlarini soliqqa tortishning ikki xil tartibi mavjud bo'lib, ular umumbelgilangan tartibda yoki soddalashtirilgan soliqqa tortish tartibida soliq to'lashlari mumkin. Kichik biznes sub'ektlari uchun soliqqa tortish tartibining ixtiyoriy tanlash imkoniyatining berilishi, ularning soliq majburiyatlarini bajarish imkoniyatini kengaytiradi.

3. Kichik biznes sub'ektlari uchun qulay soliq muhitini yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Soliq yukini, birinchi navbatda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlaridan olinadigan soliq yukini sezilarli darajada kamaytirish belgilanmoqda. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari uchun yagona soliq to'lovi stavkasi 6 foizdan 5 foizga tushirilishi, ular ixtiyorida qoladigan moliyaviy resurslarni ko'paytirish imkoniyatini yaratmoqda.

4. Yagona soliqning joriy etilishi, shubhasiz, kichik biznesni soliqqa tortishni, hisob-kitoblarni sezilarli darajada soddalashtirdi va uning rivojlanishini rag'batlantirishga qo'shimcha turtki bo'lmoqda.

5. Respublikamizda 2010 yildan boshlab yagona soliq to'lovini belgilangan stavkalar asosida, biroq ma'lum bir faoliyat turlari bo'yicha o'rnatilgan bazaviy me'yorlardan kam bo'lmagan miqdorda hisoblab chiqish amaliyoti yo'lga qo'yildi. Kiritilgan bazaviy me'yorlarning 3 tasi yagona soliq to'loviga tegishli. Kiritilgan mazkur bazaviy me'yorlar tadbirkorlik sub'ektlarining soliqdan qochish harakatlariga qarshi choralar sifatida qo'llanilmoqda.

6. Yagona soliq to'lovi summasini muayyan ob'ektlarga bog'liq qilib belgilanishi bugungi kun nuqtai-nazariyadan to'g'ri qo'llanilayotgan chora sifatida qaralsada, soddalashtirilgan tartibni yanada murakkablashishiga olib kelmoqda.

Ushbu xulosalardan kelib chiqib, kichik biznes sub'ektlarini soliqlar vositasida rag'batlantirishga qaratilgan takliflarimiz quyidagilardan iborat:

1. Kichik korxonalarni soliqqa tortish mezonini sifatida faqat ishchilar sonidan kelib chiqib aniqlanishi soliq to'lovchilarni soliqdan qochish uchun imkoniyat yaratib bermoqda. Soddalashtirilgan soliqqa tortishga o'tish maqsadida qator korxonalar ishlovchi xodimlarni rasmiylashtirmasdan yollab ishlatishga harakat qiladilar. Shuning uchun kichik korxonalarni soliqqa tortishning jahon tajribasidan kelib chiqib, mikrofirma va kichik korxonalarni aniqlash mezonlariga, ishlovchilar soni bilan birga, tovar aylanmasini ham kiritish zarur.

2. Soliq solishning soddalashtirilgan tartibida ayrim kamchiliklar mavjud. Jumladan, resurs soliqlarining undirilmasligi, cheklangan yer va suv resurslari, mol-mulklardan samarasiz foydalanishga zamin yaratadi. Shuningdek, iqtisodiyotga foydasiz bo'lgan, ishlab chiqarishda qatnashmaydigan hasham mol-mulklarning ko'payib borishiga olib keladi, soliq yukining iqtisodiyot sub'ektlari o'rtasida adolatsiz taqsimlanishiga sabab bo'ladi, davlat byudjeti qo'shimcha daromadlarining yo'qotilishiga sabab bo'ladi.

3. Mahalliy xom-ashyo asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarayotgan mikrofirmalar va kichik korxonalariga regressiv soliq stavkalarini qo'llash zarur.

4. Mikrofirma va kichik korxonalar uchun yagona ijtimoiy to'lovning kamaytirilgan imtiyozli stavkasini joriy etish lozim.

5. Soliq qonunchiligida xizmatlar ko'rsatish sohasi mikrofirmalari va kichik korxonalar uchun plastik kartalar qo'llanib haq to'langan holda ko'rsatilgan xizmatlar hajmi bo'yicha tasdiqlangan stavka 10 foizga pasaytirilishi belgilangan. Plastik kartalarning ahamiyatini yanada oshirish uchun uni qo'llab haq to'langan xizmatlar hajmiga belgilangan stavka 20 foizga pasaytirilishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

6. Hududlar iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda kichik biznesning o'rnini yanada oshirish, mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun ularning hududlardagi joylashuviga muvofiq qo'shimcha soliq imtiyozlari va preferentsiyalari berilishi maqsadga muvofiq. Shu orqali mamlakatimizning chekka hududlarida ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlantirishga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon va Qarorlari, Vazirlar Mahkamasining Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlari.

Normativ-huquqiy hujjatlar:

1.1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2011. - 22 b.

1.2. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. – T.: “Adolat”, 2010. - 395 b.

1.3. O'zbekiston Respublikasining “Davlat soliq xizmati to'g'risida”gi Qonuni. 1997 yil, 29 avgust.

1.4. O'zbekiston Respublikasining “Soliq maslahati to'g'risida”gi qonuni, 2006 yil 21 sentyabr. //Xalq so'zi, - 2006 yil, 21 sentyabr.

1.5. O'zbekiston Respublikasining “Byudjet tizimi to'g'risida”gi qonuni, 2000 yil 14 dekabr.

1.6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 30 avgustdagi “1998 yil 9 apreldagi “Xususiy tadbirkorlik, kichik va o'rta biznesni rivojlantirishni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” gi farmoniga o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida”gi PF-3305 sonli Farmoni.

1.7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 15 iyundagi “Tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan taqdim etiladigan hisobot tizimini takomillashtirish va uni noqonuniy talab etganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish to'g'risida”gi Farmoni.

1.8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 20 iyundagi PF-3620-sonli “Mikrofirmalar va kichik korxonalarni rivojlantirishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi Farmoni.

1.9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 15 maydagi “Tadbirkorlik faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 1112-sonli Qarori.

1.10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining 2012 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi 1675-sonli Qarori (2011 yil 30 dekabr).

1.11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining 2013 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi 1887-sonli Qarori (2012 yil 25 dekabr).

1.12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 8 yanvardagi “Respublika soliq organlari tizimini yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1257 sonli Qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari va ma’ruzalari

1.13. Karimov I.A. O‘zbekiston buyuk kelajak sari. - T.: O‘zbekiston, 1998. - 360-b.

1.14. Karimov I.A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik. – T.: “O‘zbekiston”, 2005 y.

1.15. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. – T.: “O‘zbekiston”, 2005. - 96 b.

1.16. Karimov I.A. Yangilanish va barqaror traqqiyot yo‘lidan yanada izchil harakat qilish, xalqimiz uchun farovon turmush sharoiti yaratish – asosiy vazifamizdir. // Xalq so‘zi 2007 yil 13 fevral.

1.17. Karimov I.A. Inson manfaatlari ustuvorligini ta‘minlash – barcha islohot va o‘zgarishlarning bosh maqsadidir. // Xalq so‘zi. 2008 yil 9 fevral.

1.18. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari. – T.: “O‘zbekiston”, 2009. – 56 b.

1.19. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – T.: “O‘zbekiston”, 2010. – 80 b.

1.20. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiqyadi. – T.: O‘zbekiston, 2011. – 21 b.

1.21. Karimov I.A. “2012-yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘taradigan yil bo‘ladi”. – T.: O‘zbekiston, 2012. - 12 b.

1.22. Karimov I.A. “Bosh maqsadimiz – keng ko‘lamli islohotlar va modernizatsiya yo‘lini qat‘iyat bilan davom ettirish”. – Xalq so‘zi. - 2013. – 19 yanvar.

II. Asosiy va qo‘shimcha adabiyotlar.

Darslik va o‘quv adabiyotlari:

2.1. Vahobov A., Jo‘raev A. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. –T.: Sharq, 2009. -526 b.

2.2. Jo‘raev A.S. Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirish-ning samarali yo‘llari. / Monografiya. “Fan” nashriyoti. 2004 y.

2.3. Jo‘raev A. Yuridik va jismoniy shaxslarni soliqqa tortish. O‘quv qo‘llanma. – T.: “O‘qituvchi” nashriyoti, 2007. –232 b.

2.4. Jo‘raev A., Safarov G‘. Soliq nazariyasi -T.: TMI, 2008. -210 b.

2.5. Jo‘raev A., Toshmatov Sh., Abduraxmonov O. Soliqlar va soliqqa tortish. O‘quv qo‘llanma, –T.: “Norma”, 2009. –184 b.

2.6. Zavalishina I.A. Soliqlar: nazariya va amaliyot. / “Iqtisodiyot va huquq dunyosi” nashriyot uyi, 2005. -544 b.

2.7. Malikov T.S. Soliq yukining og‘irligini keskin kamaytirish kerakmi? Risola. -T.: 2006. —B. 32.

2.8. Malikov T.S. Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalari. –T.: Akademiya, 2002. -204 b.

2.9. Миляков Н.В. Налоги и налогообложения: Учебник. -М.: “Инфра-М”, 2008

- 2.10. Налоги в условиях экономической интеграции. / В.С. Бард и др. под ред. проф. В.С.Барда и Л.П.Павловой. –М.: КНОРУС, 2009. -288 с.
- 2.11. Налоги в условиях экономической интеграции. //Под ред. проф. В.С.Барда и Л.П.Павловой. -М.: “Кнорус”, 2007
- 2.12. Налоги и налогообложение. Учебник для вузов /Под ред. Д.Г.Черника. М: Юнита-Дана, 2010. -345 с.
- 2.13. Налоги и налоговое право. /Под ред. А.В. Брызгалина. –М.: Аналитика-Пресс, 2010. -608 с.
- 2.14. Налоги и налогообложение./Тарасова В.Ф. и др.–М.:Финансы и статистика, -2010.
- 2.15. Пансков В.Г., Князев В.Г. Налоги и налогообложение: Учебник для вузов. –М.: “МЦФЭР”, 2009
- 2.16. Перов А.В., Толкушкин А.В. Налоги и налогообложение. Учебное пособие. -М.: “Юрайт”. 2009
- 2.17. Русакова И.Г., Кашина В.А. Налоги и налогообложение. -М.: ЮНИТИ, -2009.
- 2.18. Soliq tizimini takomillashtirish yo’nalishlari. / Respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari (2011 yil 26 fevral). T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2011. – 298 b.
- 2.19. Tojiboeva D. Iqtisodiyot nazariyasi: Ikkinchi kitob: Oliy o’quv yurtlari talabalari uchun o’quv qo’llanma. /M.Sharifxo’jaev ilmiy tahriri ostida. - T.: “Sharq”, 2003. - 331-332-b.
- 2.20. Толкушин А.В. Налоги и налогообложения: Энциклопеческий словарь. –М.: - 2000.
- 2.21. Toshmurodova B. Soliqlar vositasida iqtisodiyotni boshqarish mexanizmi. /Monografiya. –T.: “Yangi asr avlodi”, 2002. -127 b.
- 2.22. Финансы. /Под ред. Л.А. Дробозиной –М.: ЮНИТИ, 2010. -350 с.
- 2.23. Xvan L.B. Soliq huquqi. - T.: Konsauditinform, 2001.-432 b.
- 2.24. Черник Д.Г. Налоги. 8-е издание –М.: Финансы и статистика, 2010. - 430.

2.25. Shodmonov Sh., G'afurov U. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. - T.: "Fan va texnologiya", 2005. - 662-b.

2.26. Юткина Т.Ф. Налоги и налогообложение: Учебник. 8-е изд., перераб. и доп. –М.: ИНФРА-М, 2010. -576 с.

2.27. Yahyoev Q.A. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. –T.: Fan va texnologiyalar markazi, 2003. -247 b.

2.28. Haydarov N.H. Soliqlar va soliqqa tortish masalalari. O'quv qo'llanma. - T.: "Akademiya", 2007. - B. 214.

Ilmiy jurnallardagi maqolalar va tezislar:

2.29. Abduraxmonov O. Soliq siyosati: dunyo tajribasi va O'zbekiston istiqboli. //Bozor, pul va kredit. – Toshkent, 2009. - № 5. - B. 36.

2.30. Adizov S. O'zbekistonda soliq-byudjet sohasidagi iqtisodiy islohotlar va ularning tahlili. //Moliya. - Toshkent, 2012. - №3. - B. 55-59.

2.31. Boymurodov S. Soliq imtiyozlari va ularning soliq to'lovchilar moliyaviy faoliyatiga ta'siri. //Soliq solish va buxgalteriya hisobi. - Toshkent, 2007. - №8.

2.32. Jo'raev A. Daromad, byudjet va soliqlar. //Soliq to'lovchining jurnali. — Toshkent, 2004. №4, - B. 27.

2.33. Malikov T.S. Mustaqillik yillarida soliq siyosati. //Jamiyat va boshqaruv. - Toshkent, 2001. №2, - B. 26.

2.34. Niyozmetov I. Soliq yukini mikrodarajada baholashning ob'ektiv zarurati. //Bozor pul va kredit. - Toshkent, 2007. - №5. - B. 51-53.

2.35. Niyazmetov I. Soddalashtirilgan soliqqa tortish tizimining ijobiy va salbiy jihatlari. //Moliya. № 4 -2012. - B. 62-67 .

2.36. Olimjonov O. Adolatli soliq — mamlakat tayanchi. //Soliq to'lovchining jurnali. - Toshkent, 2006. - №6. - B. 38-40.

2.37. Toshmatov Sh. Soliq tushumlari va stavkasini prognozlash. //Jamiyat va boshqaruv. - Toshkent, 2008. №2 - B. 50-51.

2.38. To'raev Sh. Xo'jalik sub'ektlari soliq yuki hisobini

takomillashtirish. // Bozor, pul va kredit. -Toshkent, 2007. -№2. - B. 35-38.

2.39. O'rmonov J. Kichik biznesni rivojlantirishda soliqlarning rag'batlantirish funksiyasidan samarali foydalanish istiqbollari. Dissertatsiya avtoreferati. Toshkent, 2010 y. 23 b.

III. Davriy nashrlar, statistik to'plamlar va hisobotlar.

3.1. O'zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. 2010 yil. -T.:2011.-№9.

3.2. O'zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. 2011 yil. -T.:2012.-№6.

3.3. O'zbekiston statistik axborotnomasi. - Toshkent, 2008-2012.

3.4. Samarqand viloyati Qo'shrabot tumani DSI ma'lumotlari.

IV. Internet saytlari.

4.1. <http://www.prezident.uz> - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy sayti

4.2. <http://www.gov.uz> - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi rasmiy sayti

4.3. <http://www.soliq.uz> - O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi rasmiy sayti

4.4. <http://www.mf.uz> - O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti

4.5. <http://www.nalog.ru> - Rossiya Federatsiyasi Federal soliq xizmati rasmiy sayti

4.6. <http://www.stat.uz> - O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi rasmiy sayti

4.7. <http://www.lex.uz> - O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi huquqiy axborot bilan ta'minlash markazi rasmiy sayti.

4.8. <http://www.tfi.uz> - Toshkent moliya instituti rasmiy sayti.